

K.Qosimova, S.Fuzailov,  
A.Ne'matova

# ONA TILI

2-SINF UCHUN DARSLIK

Sakkizinch nashri

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi  
vazirligi tasdiqlagan*



*Cho'lpox nomidagi nashriyot-mathaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2005*

## Shartli belgilar:



— uyga vazifa.



— o'ylab ko'ring.



— dars tugadi.

### Taqribchilar:

*M. Yusupova*

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

*N. Ahmedova*

Respublika ta'lif markazi boshlang'ich ta'lif sho'basi boshlig'i

*M. Noraliyeva*

Angren shahar 43-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

10<sup>31363</sup>  
3

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar himoya qilinadi va nashriyotga tegishlidir. Undagi matn va rasmlarni nashriyot roziligesiz to'liq yoki qisman ko'chirib bosish taqiqlanadi.

Q 4306020600 — 04  
360 (04) — 2005

20/05 Alisher Navoiy  
nomidagi  
Ozbekiston M.

№

ISBN 5 — 8250 — 0906 — X

© Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005-yil.

# Vatanni sevmoq iymondandir!

## TAKRORLASH

### GAP VA SO'Z

**1-mashq.** Rasmga qarab hikoya tuzing.



**2-mashq.** O'qing. Matnda nechta gap bor?

Biz Vatanimiz — mustaqil O'zbekistonni onamizdek sevamiz. Shuning uchun uni ona Vatan deb ardoqlaymiz. Ona Vatanimiz go'zal va bepoyon.

Og'zaki nutqda bir gap boshqasidan qanday ajratiladi? Yozma nutqda-chi?

Ikkita gapni ko'chiring. Tekshiring.

### 3- mashq. O'qing.

Do'stlar, mening yurtimni  
O'zbekiston deydilar.  
Dong'i tutgan dunyoni  
Bog'-u bo'ston deydilar.

*Zafar Diyor*

She'rda nechta gap bor? Ikkinchi gapni ko'chiring. Shu gapda nechta so'z bor?



### 4- mashq. Maqollarni o'qing.

Ona yurting – oltin beshiging.

Ona yerning tuprog'i – ona sutidek aziz.

Nima uchun shunday deymiz? O'ylab ko'ring.

Ko'chiring. Yozganingizni bo'g'inlab o'qib, tekshiring.



Matnda bir gap boshqasidan (keyingisidan) nima bilan ajratiladi?

**5-mashq.** O'qing. Matnda nechta gap bor? Gaplarning chegarasini aniqlang.

sinfimiz keng va yorug' deraza tokchalariga gullar qo'yilgan biz sinfimizni toza saqlaymiz

Matnni ko'chiring. Har bir gapning birinchi so'zini bosh harf bilan boshlang. Gapning oxiriga nuqta qo'ying.

### 6-mashq. Ifodali o'qishga tayyorlaning.

Hoy, ko'chamiz ustida  
Chaqnagan go'zal fonar!  
Nega yalt-yult yonasan?  
Bizga qanday foydang bor?

Fonar asta jilmayib  
Dedi: — O'zing sinab ko'r!

*Muhammadjon Qo'shoqov*

Ikkita gapni ko'chiring. Tekshiring.

Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi.

Gapning oxiriga **nuqta** (.), **so'roq belgisi** (?) yoki **undov belgisi** (!) qo'yiladi. *Biz anhorda cho'mildik. Sen suzishni bilasanmi? Cho'milish qanday maza!*

**7-mashq.** Bilim haqidagi maqollarni o'qing.

Bilim — aql chirog'i. Bilim baxt keltiradi. Bilim davlatdan qimmat. Bilmasang, bilganlardan so'ra.

Oxirgi ikki maqolni ko'chiring, mazmunini aytib bering.



**8-mashq.** O'qing. Topishmoqning javobini toping.

Yer tagida oltin qoziq,  
U hammaga bo'lar oziq.

Topishmoqni javobi bilan birga yozing.



Qaysi so'zlar bosh harf bilan yoziladi?

**9-mashq.** O'qing. Matnda nechta gap bor?

Shavkat kuchukcha boqdi. U kuchukchaga Ziyrak deb nom qo'ydi. Ziyrak yaxshi o'syapti.

Ko'chiring. Kuchukchaga qo'yilgan nomni bildirgan so'zning tagiga chizing.

## 10-mashq. O'qing.

Nargiza Abdullayeva — mening dugonam. Uning Malla degan mushugi bor. Biz doim birga o'ynaymiz.

Ko'chiring. Tekshiring.

Qaysi so'zlarni bosh harf bilan yozdingiz? Nima uchun?

**Kishilarning ismi va familiyasi, hayvonlarga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi.**



## 11-mashq. O'qing. Matnda nechta gap borligini ayting.

Gulnoza mushukcha boqdi unga Momiq deb nom qo'ydi mushukcha juda chiroyli ovozi yoqimli Gulnoza uni non va sut bilan boqadi

Matnni ko'chiring. Har bir gapning birinchi so'zini bosh harf bilan boshlang. Gapning oxiriga nuqta qo'ying.



## TOVUSHLAR VA HARFLAR



Tovushlar yozuvda qanday belgilanadi?

## 12-mashq. O'qing, javobini toping.

Qanoti bor, qoni yo'q,  
Tuxum qo'yar, soni yo'q.

Topishmoqning javobini yozing.



Topishmoq javobi nechta tovushdan tuzilgan? Bu tovushlar yozuvda qanday harflar bilan ifodalanadi?

Tovushlar yozuvda harflar bilan ifodalanadi.

**13- mashq.** O'qing. Berilgan so'zlar qaysi harflari bilan bir-biridan farqlanishini aiting.

Bil—dil—til, tovus—tovuq, etak—etik, ko‘z—kuz.

Ko‘chiring. So‘zlarning ma’nosini o‘zgartirayotgan harflar tagiga chizing.

**14- mashq.** Berilgan so‘zlarga bitta tovushi bilan farqlanadigan so‘zlar tanlang.

*Don—non, boy—..., pilla—..., choy—..., paxta—..., bog‘—... .*

So‘zлarni namunadagidek yozing. So‘z ma’nosini farqlayotgan harflarning tagiga chizing.



**15-mashq.** O'qing. So‘zlar qaysi harflari bilan farqlanyapti?

Bilak—tilak, lola—tola—bola, bolg‘a—bolta, savob—javob, keng—teng, mosh—tosh.

Ko‘chiring. So‘z ma’nosini o‘zgartirgan harfning tagiga chizing. O‘zingiz bir tovush bilan farqlanadigan ikkita so‘z ayting.



## NLI TOVUSHLAR VA HARFLAR



Unli tovushni undosh tovushdan qanday ajratamiz?

Avval **a, e, i, o, u, o‘** unli tovushlarni, keyin **b, d, f, m, p, t** undosh tovushlarni aiting. Qaysi tovushlarni ayt-ganiningizda, havo og‘izda to‘sinqqa uchramay, erkin o‘tadi?

Unli tovushlarni aytganimizda, havo og‘izda to‘sinqqa uchramay, erkin o‘tadi. Faqat ovoz eshitiladi.

O‘zbek tilida oltita unli tovush bor: **a, e, i, o, u, o‘.**

Unli tovushni ifodalaydigan harflar ham oltita: **a, e, i, o, u, o‘.**

### 16-mashq. O‘qing.

Dadamlar der, bu ruchka,  
Bilsang, ega zo‘r kuchga.  
U bilan biz tenglikka,  
Qo‘l qo‘yanmiz tinchlikka.

*Qambar O‘tayev*

She‘rning har bir qatorini bosh harf bilan boshlang va xat boshidan yozing. Unli harflarning tagiga chizing.

### 17-mashq. Maqollarni o‘qing.

Odob oltindan qimmat.

Aql bilan odob — egizak.

Ko‘chiring. Har bir so‘zda nechta unli harf va nechta bo‘g‘in bor?

Bir unli tovush bo‘g‘in hosil qiladi: *o-na, a-ka, u-ka.*



**18-mashq.** O‘qing. Faqat bir unli harf bo‘g‘in hosil qilgan so‘zlarni yozing. Shu bo‘g‘inning tagiga chizing.

Ona, ota, singil, aka, uka, opa, tog‘a, xola, amaki, amma.



**19-mashq.** So'zlarni bo'g'inlab o'qing. Shu so'zlarning birinchi bo'g'inida doim **a** tovushini aytинг.

**Vatan**, jahon, **mashina**, havo, **baho**, bahor, **javob**, tamom, shaftoli, **vazifa**, bahodir, shamol.

Ajratilgan so'zlarni ko'chiring, **a** harfining tagiga chizing.

**20-mashq.** Tushirib qoldirilgan **a** va **o** harfini qo'yib, so'zlarni o'qing.

S.bzi, b.dring, kar.m, q.vun, k.rt.shka, t.rvuz, sh.lg'.m, h.nd.lak, l.vl.gi, q.v.q.

Sabzavotlar va poliz ekinlari nomini alohida-alohida yozing.

Sabzavotlar: *lavlagi*, ... .

Poliz ekinlari: *qovoq*, ... .



**21-mashq.** Tushirib qoldirilgan unli harfni qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

S.do, s.hifa, n.muna, so.t, n.vbatchi, s.vat, f.zogir, l.viya, y.stiq, y.mg'ir.

Yozgan so'zlariningizni lug'atdan tekshiring.



**22-mashq.** So'zlarni bo'g'inlab o'qing.

Bulbul, tutun, butun, burun, burgut, quduq, urug', tuxum, chumchuq, uzum.

Ko'chiring. Unli harflar tagiga chizing.

Birinchi bo'g'inida **u** unlisi kelgan bunday so'zlarining ikkinchi bo'g'inida ham **u** harfi yozilishini unutmang.

**23- mashq.** Bittadan bo‘g‘in qo‘shib, so‘z tuzing va yozing.  
Unli tovushni ifodalagan harflar tagiga chizing.



bul —



— xum



chum —



— zum

Shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.



**24-mashq.** Tushirib qoldirilgan **u** harfini qo‘yib ko‘chiring. Shu so‘zlarning yozilishini bilib oling.

Shirin .z.m, .chq.r ot, sara .r.g‘, chuqur q.d.q,  
oq t.n.ka, .n.mli yer.



**25-mashq.** O‘qing. I unlisini so‘z va bo‘g‘in boshida uzunroq, undoshdan so‘ng qisqa aytинг.

Inoq, **intizom**, igna, ilm, ilg‘or, imzo, **izzat**, oila, **bilim**, bilan, **sinf**, gilam, **kitob**, pichan, nihol, **tirnoq**, **qo‘shiq**, koinot.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ko‘chiring.

**26- mashq.** Tushirib qoldirilgan unli tovushlarni ifodalagan harflarni qo‘yib, so‘zlarni yozing.

P.lла, s.gir, s.mob, g.los, o‘tk.r, n.xat, l.tsey, r.mol.

Shu so‘zlardan qatnashtirib ikkita gap tuzing.



## 27-mashq. O'qing.

### SOG'LOM AVLOD QO'SHIG'I

Quyosh bo'lsin, oy bo'lsin,  
O'zbekiston boy bo'lsin.  
Menga **atlas**, ukamga  
Gijinglagan toy bo'lsin.

Dadam yuzga kirsinlar,  
Ayam yuzga kirsinlar,  
Bizlar **yuzga** kirganda,  
Yonimizda **yursinlar**.

O'saversin bo'yimiz,  
**Tinchlik** orzu-o'yimiz.  
Bu dunyoda bor bo'lsin  
O'zbekiston — uyimiz!

*Safar Barnoyev*

She'rming birinchi va ikkinchi qatorini ko'chirib, unli harflar tagiga chizing.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida ikkita gap tuzing.



## 28-mashq. Diktant yozishga tayyorlaning.

### BOG'CHADA

Anvar hali yosh. Opasi Yulduz uni bog'chaga olib boradi.  
Bog'chada uning o'rtoqlari ko'p.  
Ular bir-biri bilan juda ahil.  
Tarbiyachi Sevara Yunusova ularni doim maqtaydi.

Diktantni yozing.

**29- mashq.** Rasmlarga qarab, uch-to'rtta gap tuzing.



Matnni o'qing. Sarlavha toping.

Tulki Turnanining uyiga mehmonga keldi. Turna unga og'zi tor kuvachada ovqat qo'ydi. Tulkinining tumshug'i kuvachaga sig'madi. Tulki och qoldi. Turna Tulkinining uyiga mehmonga bordi. Ayyor Tulki unga likopchada ovqat qo'ydi. Turna yeza olmadi.

Matnni rasmga qarab ikki qismga bo'ling. Har bir qismni rasmlar tartibida yangi yo'ldan boshlab ko'chiring. Yozganizingizni bo'g'inlab o'qing va tekshiring.



**30- mashq.** O'qing. Javobini toping.

U kelsa arg'imchoq solib,  
Boshlanadi yoz.

U ketsa arg‘imchoq solib,  
Tez kelar ayoz.



Topishmoqni ko‘chiring. Javobini yozing.

Unli harflar tagiga chizing.



## UNDOSH TOVUSHLAR VA HARFLAR



Undosh tovushlar qanday talaffuz qilinadi?

**31- mashq.** Rasmlarni ko‘ring va so‘zlarni o‘qing.



chumchuq

kaptar

bulbul

jo‘ja

Har bir so‘zning birinchi tovushini aiting. Havo og‘izdan qanday o‘tayotganini kuzating: erkin o‘tyaptimi yoki to‘singga uchrayaptimi?

Undosh tovushni aytganimizda havo og‘izda to‘singga uchraydi. Shuning uchun **ch**, **k** kabi undosh tovushlarni aytganimizda shovqin eshitiladi; **b**, **j** kabi tovushlarni aytganimizda shovqin va ovoz eshitiladi.

O‘zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Ular shu harflar bilan ifodalanadi: **b, d, f, g, h, j** (jo‘ja), **j** (ajdar), **k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g‘, sh, ch, ng.**

**32- mashq.** Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi harflardan mosini qo‘yib, so‘zlar tuzing va ularni yozing. Undosh harflarning tagiga chizing.

Qayi. (n, sh, q), ko‘r.k (a, i),  
ku. (z, y, l, n, ch, t), ol.m (a, i)

N a m u n a : *qayin, qayish, qayiq.*

**33- mashq.** O‘qing.

### OILA BUDJETI

Oila budgeti – oila a’zolarining daromadi, pul jamg‘armasi. Bu pul oila a’zolarining kundalik ehtiyojini qondirish uchun ishlataladi.

Gap nima haqida boryapti? *Budjet, daromad, pul* so‘zлari mazmunini bilib ko‘chiring. Undosh harflarning tagiga chizing.



**34-mashq.** Avval ichda (ovoz chiqarmay), keyin ovoz chiqarib o‘qing.

Bog‘ga kirdim, olmalar  
Qi p-qizarib pishibdi.  
Silkitibdi shamollar,  
Yerga to‘p-to‘p tushibdi.  
Havas bilan har birin  
Olib ko‘rdim qo‘limga.

Oltin kabi ko‘rinar  
Ular mening ko‘zimga.

*Zafar Diyor*

She’rning oxirgi ikki qatorini ko‘chiring. Undosh harflarning tagiga chizing.



**35-mashq.** Rasmga qarang. Bolalarga ism qo‘ying. Gaplar tuzing.



Matnni o‘qing.

Bog‘da olmalar pishdi. O‘quvchilar bog‘bonga yordam berdilar.

Muzaffar, Yorqinoy va Ma’rifat olmalarni terdilar.

Zulfiya olmalarni yashiklarga joyladi. Alisher ularga yordamlashdi.

*Savollarga javob bering.*

1. Bog‘da nimalar pishdi?
2. O‘quvchilar nima qildilar?
3. Muzaffar, Yorqinoy va Ma’rifat nima qildilar?
4. Zulfiya nima qildi?

5. Alisher nima qildi?  
Sarlavha qo'yib, matnni ko'chiring.



**36- mashq.** Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan undosh harflarni qo'yib, so'zlarni ko'chiring. Lug'atdan tekshiring.

Yong'o., da.tar, .onar, i.ak, lug'a., o'qu.chi, sa.zavot, Tosh.ent, .enejer, yo.tiq.



**37-mashq.** So'zlarni o'qing. Harf birikmasi qaysi undosh tovushlarni ifodalagan?

Lochin, sichqon, murch, kichik, uchburchak, kishmish, sharshara, mushuk, pashsha, ishonch, teng, tengdosh, jangchi, jang, rang, rangli, kashnich, ishchi, dushanba.

Ikki bo'g'inli so'zlarni bo'g'lnlarga bo'lib, chiziqcha bilan yozing.

**38-mashq.** Mazmunga mos so'zlarni qo'yib, maqollarni o'qing.

Ish seni yengmasin, sen ishni .... Ishlagan yerni .... Gap bilan shoshma, ish bilan .... Achchig'ing chiqsa ham aqling ....

Qo'yish uchun so'zlar: *shosh, qochmasin, yeng, yashnatadi*.

Mehnat haqidagi maqollarni ko'chiring. Harflar birikmasi ishtirot etgan so'zlar tagiga chizing.



**39-mashq.** O'qing.

Toshkent mustaqil O'zbekistonimizning poytaxtidir. Toshkentda O'zbekiston milliy bog'i barpo etilgan.

Bog‘da Alisher Navoiyning katta, chiroyli haykali bor.

Ko‘chiring. Harflar birikmasi ishlataligan so‘zlarning tagiga chizing. **Sh, ch, ng** harflari birikmasi qaysi undosh tovushlarni ifodalaydi?



**40-mashq.** Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni to‘g‘ri o‘qing.

## NOSIRJON BILAN SOBIRJON

Nosirjon bilan Sobirjon — aka-uka.

Sobirjonne ko‘rganda odamlar:

— Zap bola ekanmi, **ko‘rsang havasing** keladi! — deb **maqtashadi** xursand bo‘lganlaridan.

U nimaiki ish qilsa, **ko‘ngildagidek** qilib o‘rgangan.

— U **mening o‘ng qo‘lim** — dastyorim! — deb maqtay-di onasi.

Qo‘ni-qo‘shnilar kichkintoylariga:

— Bola **bo‘lsalaring**, Sobirjonday **bo‘linglar!** — deb nasihat qilishadi.

Nosirjon ham Sobirjonday bo‘lgisi keladi. Nima qilsin — qo‘li kelishmaydi. Axir har narsaga bolalik-dan ko‘nikish kerak-da...

*Shukur Sa ‘dulla*

Bir gap bilan aytin: Sobirjon qanday bola?

O‘ylab ko‘ring: Nosirjon Sobirjonday bo‘lish uchun nima qilishi kerak?

**41- mashq.** So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

*Tang-ri, dongdor, manglay, zarang, tarang, tanglay, tong, keng, chang, ming, bong, zang.*



## 42-mashq. So‘zlarni bo‘g‘inlab to‘g‘ri o‘qing.

*Ong-li, ingliz, janggoh, rangdor, jangnoma, keng, kenglik, zang, ko‘nglim, si-ngil, jangovar, kengash, dengizchi, zangori.*

So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ling va ularni chiziqcha bilan ajratib yozing.



**43-mashq.** O‘qing. Maqollarning mazmunini aytib berishga tayyorlaning.

Tili shirinning do‘sti ko‘p. Tinch elning bog‘i gullaydi. Yurti tinchning eli tinch. Tinchlilik bilan el ko‘karadi.

Maqollarni ko‘chiring. Tekshiring.

**44-mashq.** Gaplarni o‘qing. Ajratilgan so‘zlardagi j harfi qaysi undosh tovushni bildiradi?

1. **Ajdaho** — ertaklarda uchraydigan afsonaviy katta ilon. 2. Siz **gijda** nondan yeganmisiz? 3. **Jurnal** — oynoma so‘ziga ma’nodosh so‘z. 4. **Jaket** — ayollar kiyadigan kamzul. 5. **Jirafa** — issiq mamlakatlarda yashaydigan bo‘yni va oyoqlari juda uzun hayvon.

Ko‘chiring. Ajratilgan so‘zlarning aytilishi va yozilishini bilib oling.



## 45- mashq. Bir undosh harf bilan farqlangan so‘zlarni o‘qing, ma’nolarini qiyoslang.

Bog‘—tog‘, bol—bosh, bola—lola—tola—xola, uzum — uzuk — uzun, tong — tok — tol — toy, mayna — maysa — mayka, tuz — tush — tut — tun, ozod — obod.

Ko‘chiring. So‘z ma’nosini farqlagan undosh harf tagiga chizing.



**46-mashq.** Topishmoqlarni o‘qing, javoblarini toping.

Qo‘shaloq tovoq,  
Ichi to‘la yog‘.

y						q
---	--	--	--	--	--	---

Bir qop un, unning  
ichida ustun.

j					a
---	--	--	--	--	---

Topishmoqlarni ko‘chiring.

**47-mashq.** Mazmunga mos so‘zlarni qo‘yib ko‘chiring, x va h harflari tagiga chizing.

Salqin ... , halol ... , mo‘l ... , taxta ... , hushyor... .

Q o ‘ y i s h u c h u n s o ‘ z l a r : mehnat, havo, ko ‘ p r i k ,  
hosil, o ‘ q u v c h i .

**48- mashq.** Rasmlarga qarang. Gaplarni o‘qing.



Avtobusga bir ayol chiqdi.  
 Xurshid avtobusda oyna oldida o'tirgan edi.  
 Xurshid darrov o'rnidan turdi va ayolga joy berdi.

Gaplarni rasmlar tartibida yozing.  
 Bir gap bilan javob bering: Xurshid nima qildi?



**49-mashq.** Gaplarni o'qing. Tushirilgan **h** harfini qo'yib ko'chiring.

Be.zodning otasi — paxtakor. U.ar yili paxtadan mo'l osil oladi.

Me.rining amakisi — bog'bon. Bog'ida gilos, olxo'ri, be.i daraxtlari ko'p.



**50-mashq.** O'qing.

Uchqun bilan O'tkir maktabdan kelayotgan edilar. Ular o'ynoqlab kelayotgan buzoqni ko'rib qolishdi.

O'tkir buzoqning yo'lini to'sdi. Uchqun uni epchilik bilan ushladi.

Buzoqning egasi Davron aka bolalarga rahmat aytdi.

Matn qanday bolalar haqida yozilgan?

*Savollarga javob yozishga tayyorlaning.*

1. Bolalar nimani ko'rib qolishdi?
2. Ular nima qilishdi?
3. Kim bolalarga minnatdorchilik bildirdi?

Sarlavha qo'yib, uch bo'limli matnni yozing. Har bir bo'limni xat boshidan boshlashni unutmang.



**51-mashq.** O‘qing. Nuqtalar o‘rniga mazmunga mos so‘zlarni qo‘yib ko‘chiring.

... xalq, ... ish, ... chegarachi, ... qiz, ... dala, ... bola, ... dehqon, ... shaftoli.

Qo‘yish uchun so‘zlar: *mehmondo’st, mehnatsevar, rejali, sersuv, sergak, chevar, zehnli, keng*.



**52-mashq.** O‘qing. So‘z boshida kelgan undoshni to‘g‘ri ayting.

Hayot, havo, haykal, hamshira, handalak, harf, hashar, harorat, hikoya, hoshiya.

So‘zlarni ko‘chiring, yozilishini yodda tuting.

**53-mashq.** Rasmda ko‘rsatilgan narsalarning nomini to‘g‘ri ayting.



Tushirilgan **h** yoki **x** harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring.

Olo‘ri, be.i, dara.t, .at, .andalak, pa.ta, .o‘roz.

To‘g‘ri yozdingizmi? Lug‘atdan tekshiring.



**54-mashq.** O'qing. Tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib, maqollarni ko'chiring.

De.qon bo'lsang, kuz .ayda,  
Kuz .aydamasang, yuz .ayda.  
.urmat qilsang, .urmat ko'rasan.



## — TUTUQ BELGISI



Tutuq belgisi qachon qo'yiladi?

**55-mashq.** O'qing. Tutuq belgisidan oldin kelgan undoshni keyin kelgan unlidan ajratib ayting.

Sur'at, Jur'at, Tal'at, San'at, qal'a, qat'iy, mash'al.

Ko'chiring. Tutuq belgili bo'g'inning tagiga chizing.

**56-mashq.** Tutuq belgisidan oldin kelgan unlini cho'ziqroq aytib, so'zlarni o'qing.

Ra'no, ba'zi, va'da, ma'no, ma'qul, sa'va, ta'zim, ta'lif, e'lon.

Ko'chiring. Tutuq belgisi qo'yilgan bo'g'inning tagiga chizing.



**57-mashq.** O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosi, aytilishi, yozilishini qiyoslang.

Ra'no **she'rni** ifodali o'qiydi.

Hayvonot bog'ida **sherni** ko'rdik.

**Sur'at**—a'luchi o'quvchi. U **suratni** chiroyli chizadi.



Ko'chiring. Tutuq belgisi bilan yozilgan so'zlar tagiga chizing.

Tutuq belgisi bilan yoziladigan so‘zlar bo‘g‘inlarga quyidagicha bo‘linadi: *mash’-al, va’-da, sa’-va*.

**58-mashq.** O‘qing.

## O‘QISH DARSIDA

Ne’mat hikoyani o‘qidi. Ma’ruf tushunganini aytib berdi. Jur’at va’da, ma’mur so‘zlarining ma’nosini aytdi. Sa’di hikoyaning ikkinchi qismini o‘qidi. Ma’mura so‘zlab berdi. O‘qituvchi ularga ball qo‘ydi.

*Savollarga javob bering.*

Ne’mat nima qildi? Kim tushunganini so‘zlab berdi? Jur’at qaysi so‘zlarning ma’nosini aytdi? Sa’di nima qildi? Ma’mura-chi?

Tutuq belgisi qo‘yilgan so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

**59-mashq.** Tutuq belgili so‘zlarga misollar toping.



**60-mashq.** O‘qing. Yoddan yozishga tayyorlaning.

Suhbati ko‘p serma’no,  
Yurish-turishi a’lo,  
Darsda olar „besh“ baho  
Kitob o‘qigan bola.

*Po’lat Mo’miñ*

Yoddan yozing. Tutuq belgisi qo‘yilgan so‘zlar tagiga chizing.





**61-mashq.** Harflarning nomini o'qing.

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg	Hh	Ii
a	be	de	e	ef	ge	he	i
Jj	Kk	Ll	Mm	Nn	Oo	Pp	Qq
je	ka	el	em	en	o	pe	qa
Rr	Ss	Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
re	es	te	u	ve	xa	ye	ze
O'o'	G'g'	Sh sh	Ch ch	Ng ng			
o'	g'a	she	che	nge			

**Alifbo** tartib bilan qo'yilgan barcha harflardir.  
Alifboda har bir harfning o'z o'rni bor.

**62-mashq.** Alifbodagi beshinchi harfning nomini ayting.  
Alifboda qaysi harf oltinchi? Qaysi harf **d** dan keyin kelgan? **I** dan oldin qaysi harf kelgan? Undan oldin-chi?

**63-mashq.** Qiz va o'g'il bolalar nomini o'qing. O'g'il bolalar nomini alifbo tartibida yozing.

Barno, Abdulla, Botir, Jalil, Jamila, Yo'lchi, Komil, Komila, Davron, Vali, Valida, Ibod, Ibodat.

**64-mashq.** O'qing. Qiz bolalarning familiyasini birinchi harfiga qarab alifbo tartibida yozing.

Ibodova, Latipova, Yo'ldoshov, Valiyeva, Kamolova, Olimov, Mirzayeva, Samadov, Tohirova.



**65-mashq.** Alifboning ikkinchi, to'rtinchi va yettinchi harfi bilan boshlanadigan uchta so'z yozing.



**66-mashq.** Sinfdoshlaringizdan beshtasining ismini alifbo tartibida yozing.

**67-mashq.** Tushirilgan harflarni qo'yib, so'zlarni alifbo tartibida yozing.

K.malak, shal.la, se.ana, v.lqon, n.bira, mu.ey, do.ton.

To'g'ri yozdingizmi? Lug'atdan tekshiring.

**68- mashq.** Mevalar nomini alifbo tartibida yozing.

Olma, gilos, o'rik, behi, anor, shaftoli, nok, uzum.



**69- mashq.** Shahar nomlarini alifbo tartibida yozing.

Toshkent, Andijon, Namangan, Buxoro, Samarqand, Guliston, Farg'ona, Qarshi.



**70-mashq.** Yozuvchilarni ismidan boshlab alifbo tartibida yozing.

Po'lat Mo'min, Ilyos Muslim, Adham Rahmat, Tolib Yo'ldosh, Shukur Sa'dulla, Quddus Muhammadiy.

**71-mashq.** Har bir qatordagi so'zlarni alifbo tartibida yozing.

1. Ishchi, dehqon, o'quvchi.
2. Terak, archa, chinor.
3. Olmaxon, yo'lbars, ayiq.



**72-mashq.** O'zingizni sinab ko'ring, alifboni bilasizmi? O'quv qurollari nomlarini alifbo tartibida yozing.

Daftar, qalam, ruchka, kitob, o'chirg'ich, chizg'ich.



## N UTQ. MATN. GAP

**73-mashq.** Rasmga qarang. Savollarga javob bering.



Bolalar qayerga bordilar?  
Quruvchilar nimalarni quradilar?



Nutq kishilarga nima uchun kerak? O'ylab ko'ring.

Nutq kishilarga shaxs va narsa haqida xabar berish yoki so'rash uchun kerak.

**74-mashq.** O'qing.

Kishilar juda qadim zamonlardan boshlab gapira bosh-laganlar. Ularga yegulik topish, uy qurish zarur bo'lgan.

Kishilar bir-birlarini yordamga chaqirganlar. Shunday qilib, so‘zlashuv tili – og‘zaki nutq paydo bo‘lgan.

Uchta gapni ko‘chiring.

### **75-mashq.** O‘qing.

Havo soviy boshlaydi. Daraxt barglari qizil va sariq rangda tovlanadi.

Qaldirg‘ochlar, turnalar issiq o‘lkalarga uchib keta boshlaydi.

Dalalarda yetishtirilgan hosil yig‘ishtirib olinadi.

Siz nimalar haqida o‘qidingiz? Bular qaysi faslda bo‘ladi?  
Ikkita gapni ko‘chiring.



### **76-mashq.** O‘qing.

Nutq kishilarning ahil yashashi va ishlashiga yordam beradi.

Siz nima haqida bilib oldingiz?  
Gapni ko‘chiring. Tekshiring.



Nutq nimalardan tuziladi?

**Nutq gaplardan, gap esa so‘zlardan tuziladi.**

### **77-mashq.** O‘qing. Ko‘chiring.

Zira – foydali o‘simlik. U tik o‘sadi. Zira iyunda gullaydi. Mevasi iyulda yetiladi. Ziraning mevasi juda xushbo‘y bo‘ladi.

Nechta gap yozdingiz? Gapning boshlanishi va oxiri qanday belgilangan?

## 78-mashq. O'qing.

### BOZOR

Bozor — savdo-sotiqlar qilinadigan, mollar ayir-boshlanadigan joy. Har bir mamlakatda, uning shahar, qishloq, gavjum joylarida bozorlar bo'ladi. Bozorlarda nimalar sotilishiga qarab ularga nom berilgan: qishloq xo'jalik mahsulotlari bozori, yoyma bozor, mol bozori, ko'chat bozori, mashina bozori.

Siz nimalar haqida bilib oldingiz?  
Bozor turlarini bildirgan so'zlarni yozib oling.

## 79-mashq. O'qing.

Mushtariy barvaqt turadi. Yuvinadi va kattalarga salom beradi.

- Assalomu alaykum, buvijon!
- Vaalaykum assalom! Baxtli bo'l!
- Assalomu alaykum, onajon!
- Vaalaykum assalom, shirin qizim!
- Assalomu alaykum, dadajon!
- Vaalaykum assalom, jajji qizim!

Mushtariy ertalabki nonushtani tayyorlashda onajoniga yordamlashadi.

Hikoya bizni nimaga o'rgatadi?  
Hikoyaning asosiy mazmunini bildirgan gaplarni o'qing.  
Oxirgi gapni ko'chiring. Tekshiring.



## 80-mashq. O'qing.

Alisher Navoiy juda buyuk shoirdirlar. Ular katta olim

va dono inson bo'lganlar. Alisher Navoiy Hirot shahrida tug'ilganlar.

*Abdulla Avloniy*



Gaplarni ko'chiring.



Gap nima?

**81-mashq.** O'qing. Ustunning qaysi tomonida gap berilgan?

O'quvchi, o'z, mifik  
maktab, sevadi. | O'quvchilar o'z  
maktablarini sevadilar.

Qaysi so'zlardan gap tuzilgan? Nima uchun? Gapni ko'chiring.

**Gap** tugal fikr bildiradi.

**Gap** so'zlardan tuziladi.

**Gapning** birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi.

*Kuz keldi. Mevalar g'arq pishgan.*



**82-mashq.** O'qing.

Quyosh chiqdi. Shahar uyg'ondi. Ko'chalar gavjum. Ishchilar ishga ketyaptilar. Bolalar mакtabga shoshiladilar.

Gaplarni ko'chirib yozing.



Gapning oxiriga qay vaqtida nuqta (.), so'roq belgisi (?) va undov belgisi (!) qo'yiladi?

**83-mashq.** O'qing. Ko'chiring.

Vatan nima? Vatan—biz tug'ilib o'sgan yer. Ona Vatan so'zi naqadar aziz!

Gapning boshi va oxirini qanday belgiladingiz?

Vatan haqida gap tuzing yoki maqol ayting.

Gap biror narsa haqida xabar mazmunini bildirsa, oxiriga **nuqta** qo'yiladi.

Gap so'rash mazmunini bildirsa, oxiriga **so'roq belgisi** qo'yiladi.

Gap kuchli his-hayajon bilan aytilsa, oxiriga **undov belgisi** qo'yiladi.

#### 84-mashq. O'qing.

### AJIB SIR

Bolarining qahri yomon,  
Chaqmasin-ey, zahri yomon!  
Tushunmadim ammo sirin:  
Nega uning boli shirin?

*Rustam Nazar*

Ko'chiring. Gap oxiriga qanday tinish belgisi qo'yilgan?



#### 85-mashq. O'qing.

Sa'di ukasi bilan uzumzorga bordi. Uzumlar g'arq pishgan. U bir bosh husayni uzib oldi. Aka-uka maza qilib yejishdi.

Gaplarni ko'chiring.



#### 86- mashq. O'qing.

Ishchilar mashinalarni zavodda yasaydilar. Mashinalar ishni yengillashtiradi.

Gaplarni ko'chiring.

Birinchi gap kimlar haqida aytilgan? Ishchilar haqida nima deyilgan? Ikkinci gap nimalar haqida aytilgan? Mashinalar haqida nima deyilgan?

### 87-mashq. Bular qachon bo'ladi?

Milt etib chiqdi quyosh,  
Dedi:—Do'stlar, qish odosh.  
Ko'rsang, yo'q qora bulut,  
Yer yuzida gilam — o't.

Sarg'ayadi ko'katlar,  
Barg to'kadi daraxtlar.  
Hosil yig'ib olinar,  
Qishga zamin solinar.

*Shukur Sa'dulla*

Kuz haqidagi she'rni ko'chiring. „Bizning kuz“ mavzusida ikkita gap tuzing.



### 88-mashq. Topishmoqlarning javobini toping.

Bir burchakda so'zlaydi,  
Ham chaladi, kuylaydi.  
Hamma uning so'zlagan  
Xabarini tinglaydi.

r					o
---	--	--	--	--	---

Hammaga to'n tikadi,  
O'zi yalang'och.

i			
---	--	--	--

Topishmoqlarni ko'chiring. Javobini yozing.



### 89-mashq. O'qing.

Bolalar donxo'rak yasadilar. Qushlar unda donlaydi. Yovvoyi kaptarlar bog'da yashaydi. Bolalar ularga don beradilar.

Birinchi gapni ko'chiring. Gap kimlar haqida aytilgan? Shu so'zni ayting. *Bolalar* so'zining tagiga bitta chiziq chizing. Bolalar

haqida nima deyilgan? Bir so‘z bilan aytin. Bolalar haqida nima deyilganini bildirgan so‘z (*yasadilar*) ning tagiga ikkita chiziq chizing.

Keyingi gaplarni ham shunday tahlil qiling.

Gap kim (kimlar) yoki nima (nimalar) haqida aytiladi va ular haqida fikr bildiradi.

(Kim?) *Shifokor bemorlarni* (nima qiladi?)  
davolaydi. (Nima?) *Oltin o’tda* (nima qiladi?) *bilinadi.*

**90-mashq.** Kim haqida aytilganini bildirgan mazmunga mos so‘zni qo‘yib, gap tuzing va yozing.

(Kim?) ... bolalarni o‘qitadi.  
 (Kim?) ... binolarni quradi.  
 (Kim?) ... kiyimlarni tikadi.  
 (Kim?) ... mакtabda o‘qiydi.

o‘quvchi  
 o‘qituvchi  
 binokor  
 tikuvchi

Gap kim haqida aytilganini bildirgan so‘zlarning tagiga bitta chiziq chizing.

Gapda *o‘qituvchi*, *binokor*, *tikuvchi*, *o‘quvchi* haqida nima deyilganini bildirgan so‘zlarni toping. Shu so‘zlarning tagiga ikkita chiziq chizing.



**91-mashq.** O‘qing.

Go‘zalning tug‘ilgan kuniga dugonalari kelishdi. Lobar she’r o‘qidi. Gulshod chiroqli o‘ynadi. Hammalari qo‘sishq aytishdi.

Ko‘chiring. Har bir gap kim yoki kimlar haqida aytilganini bildirgan so‘zlarni aniqlang va belgilang.





Matn nima?

Mazmunan o‘zaro bog‘langan ikki yoki bir necha gap **matn** deyiladi. Matnga sarlavha qo‘yish mumkin.

### 92-mashq. O‘qing.

Shamoldan o‘rmon shovullaydi.

Boyo‘g‘li kemiruvchilar bilan ovqatlanadi.

Boyo‘g‘li bog‘ va o‘rmonlarda yashaydi. U tunda kemiruvchilarni ovlaydi. Boyo‘g‘li – foydali qush.

Matn qaysi ustunda berilgan? Qaysi ustunda o‘zaro bog‘langan gaplar berilgan? Matnni ko‘chiring.

### 93-mashq. O‘qing.

## CHUMCHUQLAR

Bu voqeа qish faslida bo‘lgandi. Yerlarni qalin qor qoplagan. Daraxtlar oppoq qorga o‘rangan.

Bolalar uy derazasidan tabiatni kuzatishardi. Yemak istagan chumchuqlar deraza tagiga qo‘ndi. Non ushoqlarini qo‘yish uchun bolalar darchani ochishlari bilanoq ochiqqan chumchuqlar gurr etib uchib ketdi.

Deraza tagida yemak borligini chumchuqlar sezdi. Ular yana uchib keldi. Ehtiyyotkorlik bilan non ushoqlarini cho‘qilay boshladи.

Matnda nimalar haqida yozilgan? U necha qismdan iborat?

*Topshiriq. Matndan foydalaniб savollarga javob bering va yozing.*

1. Bu voqeа qachon bo‘lgan edi?
2. Ochiqqan chumchuqlar najot istab qayerga keldi?
3. Rahmdil bolalarning chumchuqlarga yordami tegdimi?

**94-mashq.** Matnni o'qing.

## KANAREYKA

Kanareyka — sayroqi qush. U juda yoqimli sayraydi.

Kishilar kanareykani uzoq Kanar orollaridan keltirishgan.

Kanareyka bizda ovqat topib yeyishda qiynaladi. Shuning uchun kishilar uni uyda boqadilar.

*Olmos*

Matnda nechta qism bor? Matnni ko'chiring. Har bir qismni xat boshidan yozing.



**95-mashq.** Ajratib ko'rsatilgan so'zlardan boshlab uchta gap tuzing.

1                  4                  3                  2  
**Doniyor**, yasadi, qayiq, qog'ozdan.  
 yordamlashdi, **Yusuf**, unga.  
 qayiqqa, **ular**, o'rnatishdi, bayroqchani.

Gaplarni yozing. Har bir gap kim yoki kimlar haqida aytilganini bildirgan so'zni belgilang.



## S O'Z VA BO'G'IN

**96-mashq.** O'ng va chap tomonda nimalar berilgan?

boyligimiz, paxta,  
bizning

da, la  
A, zi, za  
pax, ta

So'zlardan gap tuzing. Gapni yozing.

Bo'g'inlardan so'z tuzing. So'zlarni yozing.



So‘zda nechta bo‘g‘in borligini qanday bilamiz?

**97-mashq.** O‘qing. She‘r nima haqida yozilgan?

Sen bor, bizga tinchlik yor,  
 Sen bor, bizlar baxtiyor.  
 Abad yurtimda bahor  
 Sen tufayli, Vatanim,  
 Sen mening jon-u tanim.

*O‘tkir Rashid*

Ikkinci gapdag‘i so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan yozing.

**98-mashq.** Bir bo‘g‘inli, ikki va uch bo‘g‘inli so‘zlar tanlang va yozing. Unli harflar tagiga chizing.

Har bir bo‘g‘inda unli tovush bo‘ladi. So‘zda nechta unli tovush bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi: *bor, bahor, bax-ti-yor*.

**99-mashq.** O‘qing.

O‘zbekiston ona yurt,  
 Dunyoda durdona yurt.  
 Xalqi tanti, mehnatkash,  
 Do‘slikda yagona yurt.

*Habib Rahmat*

So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing. Uch bo‘g‘inli so‘zlarning tagiga chizing.



**100-mashq.** Bittadan bo‘g‘in qo‘shib, so‘z tuzing.

.nor, ..jir, .zum, gi..., .rik, ..xo‘ri, shafto.. .

So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.



**101-mashq.** Mehnat haqidagi maqolni o‘qing.

Halol mehnat — yaxshi odat, berar senga saodat.

So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan yozing. Ikki bo‘g‘inli so‘zlarning tagiga chizing.

Bo‘g‘in bir unli tovushdan tuziladi: *o-na, a-ka, sa-o-dat*.

Bo‘g‘in bir unli va bir undosh tovushdan tuziladi: *bo-la, lo-la, ol-ma*.

Bo‘g‘in bir unli va bir necha undosh tovushdan tuziladi: *mak-tab, sinf, dars-lik*.

**102-mashq.** Bir bo‘g‘inli, ikki bo‘g‘inli, uch bo‘g‘inli so‘zlarni uch ustun shaklida yozing.

Do‘s<sup>t</sup>, do‘s<sup>t</sup>lik, sinf, sinfdosh, kitob, kitobxon, paxtakor, paxtazor.

**103-mashq.** O‘qing.

Otam — taniqli fermer. U zotdor sigirlarni boqadi.

Gapdagи so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan yozing.

**104-mashq.** O‘qing.

## NARXLAR

Narx — tovar qiymatining pul shaklida ifodalanishi. Har qanday tovar baholanadi. Ularga narx qo‘yilganda barcha sarf-xarajatlar hisobga olinadi.

Nimalarni bilib oldingiz? Birinchi gapdagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing. Shu gapdagi bir bo‘g‘inli so‘zlarning tagiga chizing.



**105-mashq.** O‘qing, tushirilgan so‘zni toping.

Nima ekan bu qush nomi?  
Sevar to‘qay, o‘rmonni.  
Qo‘sish ayarkan kuk-ku,  
Shu sababdan nomi ... .

*Quddus Muhammadiy*



k

So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.



?

Nima uchun qushning nomi kakku ekan?



## B O‘G‘IN KO‘CHIRISH

?

Yozganda so‘zning bir yo‘lga sig‘may qolgan qismi keyingi yo‘lga qanday ko‘chiriladi?

So‘z bir yo‘ldan ikkinchi yo‘lga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi: *da-raxt, ol-cha, va -da, san -at*.

So‘z boshida bo‘g‘in hosil qilgan bir harfni oldingi yo‘lda qoldirib bo‘lmaydi: *o-najon* emas, *ona-jon*, *o -quvchi* emas, *o ‘quv-chi* kabi ko‘chiriladi.

So‘z oxirida bo‘g‘in hosil qilgan bir harfni keyingi yo‘lga ko‘chirib bo‘lmaydi: *mudofa-a* emas, *mudo-faa*, *voqe-a* emas, *vo-qea* kabi ko‘chiriladi.

**106-mashq.** So‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish uchun bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

Bulbul, mayna, to‘rg‘ay, kaptar, chumchuq, musicha, laylak, turna, qaldirg‘och, qarg‘a.

**107-mashq.** Topishmoqni o‘qing. Javobini topping.

Yurar tekis **egatdan**,  
**Qanolari po‘latdan**.  
 Yelkasida qopi bor  
 Katta temir savatdan.




Ajratilgan so‘zlarni ko‘chirish uchun bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

**108-mashq.** Rebusni topping. Topgan so‘zlariningizni ko‘chirish uchun bo‘g‘inlarga bo‘lib yozing.

**q**



**s'**



**109-mashq.** Quyidagi so‘zlar bir yo‘ldan keyingi yo‘lga qanday ko‘chiriladi?

Mashina, navbatchi, o‘yinchoq, onajon, o‘qituvchi, o‘quvchi.

So‘zlarni ko‘chirish uchun bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.



Qanday so‘zlar ko‘chirish uchun bo‘g‘inlarga bo‘linmaydi?

Bir bo‘g‘inli so‘zlar ko‘chirish uchun bo‘g‘inlarga bo‘linmaydi: *do‘s, dars, fasl, kuz, qish*.

*Ona, ota, ahil, o‘rik, uzum* kabi ikki bo‘g‘inli so‘zlar ko‘chirish uchun bo‘g‘inlarga bo‘linmaydi.

**110-mashq.** O‘qing. Nima uchun bu so‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘lib ko‘chirilmaydi?

Ahil, dars, ota, ona, aka, uka, aziz, ekin, uya, etik, eshik, sinf, qish, yoz, kuz, yil, tong.

Ko‘chiring. Unli harflar tagiga chizing.

**111-mashq.** O‘qing.

Omon bog‘ga bordi. U daraxtga donxo‘rak o‘matdi. Taxtachaga don sepdi. Qushlar uchib keldi.

Matnni ko‘chiring. Ko‘chirish uchun bo‘g‘inlarga bo‘linmaydigan so‘zлarning tagiga chizing.

**112-mashq.** O‘qing. Avval ko‘chirish uchun bo‘g‘inlarga bo‘linmaydigan so‘zlarni yozing. Keyin qolgan so‘zlarni ko‘chirish uchun bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

Muallim, olim, olam, o‘quvchi, she’r, laziz, aziz, daftар, akajon, anor, aka, daraxt.

Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarini yodga tushiring. Mashqni to‘g‘ri bajardingizmi? Tekshiring.



### 113-mashq. Topishmoqni o'qing. Javobini toping.

Bir otasi, bir onasi,  
Necha yuz ming bolasi.



So'zlarni ko'chirish uchun bo'g'lnlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing. Qaysi so'zlar bo'g'lnlab ko'chirish uchun bo'linmaydi? Nima uchun?



Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi keyingi yo'lga qanday ko'chiriladi?

Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) keyingi yo'lga birgalikda ko'chiriladi: *pe-sho-na, pi-choq, si-ngil*.

**114-mashq.** So'zlarni ko'chirish uchun bo'g'lnlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

Alisher, xizmatchi, singil, sershovqin, qizcha, dengiz, Rashida, Barchin.

Harflar birikmasi ishtirok etgan bo'g'lnlar tagiga chizing.

### 115-mashq. Matnni o'qing.

Dilshod va Jamshid — aka-uka. Ular birgalikda gul o'tqazishdi. Dilshod suv tashidi. Jamshid gullar tagini yumshatdi. Gullar o'sa boshladи. Ular juda sevinishdi.

Harflar birikmasi bilan yozilgan so'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

**116-mashq.** Maqollarni o‘qing. Mazmunini tushuntirishga tayyorlaning.

O‘qish yaxshi, uqish undan ham yaxshi.

Qunt bilan o‘rgan hunar,  
Hunardan rizqing unar.

Ko‘chiring. Tekshiring.

Bo‘g‘in ko‘chirish uchun bo‘linmaydigan so‘zlarni aytинг.  
Nega bo‘g‘in ko‘chirish uchun bo‘linmasligini tushuntiring.



**117-mashq.** Bo‘g‘in ko‘chirish haqida gapirib berishga tayyorlaning. Bu haqda darslikdan o‘qing. So‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish uchun bo‘lib, chiziqcha bilan yozing.

Ravshan, Mohichehra, ko‘ngil, chumchuq, qoshiq, ishchan, hasharot, pishiq.



**118-mashq.** Diktant yozing.

### OPA-SINGILLAR

Gulchehra, Xurshida va Xadicha — opa-singillar. Ularning onalari Oysha opa — chevar. Qizlar ham onalaridan kashta tikishni o‘rganishgan. Ular juda inoq. Kash-tani birgalikda tikishadi.



### ARANGLI VA JARANGSIZ UNDOSH TOVUSHLAR. ULARNING HARF BILAN IFODALANISHI

**119-mashq.** O‘qing.

1. Bog‘bon ko‘chatni ekdi.
2. Shamol ko‘chatni egdi.
3. Mard maydonda bilinadi.
4. Bahor mart oyidan boshlanadi.

Faqat bir harfi bilan farqlangan so‘zlarni topping, **g** va **k**, **d** va **t** tovushlarini talaffuz qiling. Qaysi tovushni talaffuz qilganingizda shovqin va ovoz, qaysi tovushni talaffuz qilganingizda faqat shovqin eshitiladi?

Gaplarni ko‘chiring, **g** va **k**, **d** va **t** harflarining tagiga chizing.

**120-mashq.** Yonma-yon berilgan so‘zlarni o‘qing. Shu so‘zlarning birinchi tovushini talaffuz qilib, qiyoslang. Qaysi tovushni talaffuz qilganingizda shovqin va ovoz, qaysilarida faqat shovqin eshitiladi?

Dil — til, gul — kul, joy — choy, jala — chala, zina — sina, vaza — fazo.

Ko‘chiring. Yonma-yon berilgan so‘zlar ma’nosini farqlayotgan harflarning tagiga chizing.

O‘zbek tilida jarangli va jarangsiz undosh tovushlar bor.

Jaranglilar: **b d g v z g‘ j j l m n r y ng**

Jarangsizlar: **p t k f s x ch sh q h**

Jarangli undosh tovushlarni aytganda, shovqin va ovoz eshitiladi, jarangsiz undosh tovushlarda faqat shovqin eshitiladi.

**121-mashq.** So‘zlarni o‘qing.

Gul — kul, barg — park, vahm — fahm, jim — chim.

Juftlab berilgan so‘zlarning birinchi tovushini talaffuz qiling. Ular qanday tovushlar?

Javob namunasi: **gul** so‘zida birinchi tovush — **g** jarangli, **k** — uning jarangsiz jufti.



**122-mashq.** O'qing. Talaffuzda qaysi so'zlar oxiridagi undosh tovushning jarangsiz jufti aytilyapti?

Tili yo'g'-u qilar hikoya  
Hamma narsa haqida boplab.  
Hamma joyga borar oyoqsiz,  
Dono qilar zehningni toblab.



Topishmoqni ko'chiring. Javobini yozing.



**123-mashq.** Ifodali o'qishga tayyorlaning.

O'rganar avval odob  
Kitob o'qigan bola.  
Yuzi bo'ladi oftob  
Kitob o'qigan bola.  
Hurmat qilar kattani,  
Kichiklar jon-u tani.  
Bajaradi va'dani  
Kitob o'qigan bola.

*Po'lat Mo'min*

Ko'chiring. Tekshiring.

Qaysi so'zlar oxirida **p** tovushi eshitiladi, ammo **b** harfi yoziladi?



Qaysi so'zlarning to'g'ri yozilishini tekshirish kerak?

**124-mashq.** So'zлами о'qing. Ko'chiring.

Ziyoda — ziyod, maqsadim — maqsad, ozoda — ozod, maktabi — maktab, rubobi — rubob, javobi — javob.

Qaysi so'zlarning oxirida jarangsiz undosh tovushlar eshitilyapti? Shu so'zlarning tagiga chizing.

So‘z oxirida kelgan justi bor undosh tovushning yozilishi ni tekshirish kerak.



Qaysi so‘z tekshirishda asos bo‘lyapti?

So‘z oxirida kelgan justi bor undosh tovushning yozilishini tekshirish uchun undoshdan so‘ng unli tovush qo‘sib aytamiz.

Oxirida undoshdan keyin unli keltirilgan so‘z tekshiruvchi so‘z hisoblanadi: *umidi—umid, sababi—sabab*.



**125-mashq.** O‘qing. O‘g‘il bolalar ismi oxirida qaysi harflar tushirib qoldirilgan?

Xurshida — Xurshi., Zohida — Zohi., Maqsuda — Maqsu., Habiba — Habi., Rashida — Rashi., Aziza — Azi. .

Tekshiruvchi so‘zni yozing, **д** harfi tagiga chizing. Keyin shunday xulosa chiqaring: *Xurshida* so‘zida unlidan oldin **д** harfi yozilgan, *Xurshid* so‘zida ham **д** harfi yoziladi.

*Xurshid* so‘zini yozib, **д** harfi tagiga chizing. Boshqa so‘zlarni ham shu tartibda yozing.



**126-mashq.** Maqollarni o‘qing.

Halol mehnat — mo‘l daroma. . Mehnatda sinalgan elda azi. . O‘z aybini bilgan mar. .

Tushirilgan harflarni qo‘yib ko‘chiring. Yozilishi tekshiriladigan harfning tagiga chizing.

**127-mashq.** O‘qing. So‘zlarining oxiriga unli tovush qo‘sib, yozilishini tekshiring.

Ozod, Umid, Obid, Ziyod, Xurshid.  
Kitob, maktab, hisob, sabab, g‘olib.

Oldin tekshiruvchi so‘zni, keyin yozilishi tekshirilgan so‘zni yozing: *Ozoda — Ozod, sababi — sabab.*

Bu so‘zlarning yozilishini unutmang.



**128-mashq.** O‘qing. Tushirilgan undosh harflarni qo‘yib yozing.

Omadi — oma., klub — klu., savodi — savo., tartibi — tarti., ahdi — ah., savobi — savo., hidi — hi., odobi — odo..



**129-mashq.** Rasmga qarab hikoya tuzing. Hikoyaga sarlavha tanlang.



Tolib bilan Obid tugunchani o‘z egasiga yetkazishdi. Shokir ota ularga tashakkur bildirdi. Tuguncha ichidagi pul va hujjatlar hamqishloqlari Shokir otaniki ekan. Aka-ukalar uyga qaytayotgan edilar. Yo‘lda tushib qolgan tugunchani ko‘rdilar.

Matnga sarlavha qo‘ying va gaplarni rasmlar tartibida yozing.



**130-mashq.** O‘qing. Tushirilgan harflarni qo‘yib ko‘chiring.

Makta. — bilimning bog‘i. Kito. — bilim manbai. Odo.li bola elga manzur. (*Maqol.*)

Maqolning mazmunini tushuntirishga tayyorlaning.





## YТИLISHDA TUSHIB QOLADIGAN UNDOSHLAR

**131-mashq.** So‘zlarning oxiriga **d**, **t** harflaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

Xursan., balan., darax., pas., farzan., payvan., ros., do‘s. .

Shu so‘zlarning aytilishi va yozilishida qanday farq bor?

*Samarqand, farzand, do'st, daraxt* kabi so‘zlar oxirida kelgan **d**, **t** tovushlari ba’zan aytilmasa ham yoziladi.

**132-mashq.** O‘qing. Ajratilgan so‘zlarning aytilishi va yozilishidagi farqni aytинг.

Ko‘rkam **Toshkent** senga **poytaxt**,  
 Gullab, yashnab turar har vaqt.  
 Quchog‘ida kulgandir baxt,  
 Yashil shahar,  
 Bag‘ring bahor,  
 O‘zbekiston, O‘zbekiston.  
 Bog‘larga kon keng **Samarqand**,  
 Uzumlari shakar **payvand**,  
 Bundan butun el **bahramand**.  
 Bog‘lari soz,  
 To‘kindir yoz,  
 O‘zbekiston, O‘zbekiston.

*Po‘lat Mo‘min*

She‘rning keyingi olti qatorini ko‘chiring. Ajratilgan so‘zlarning yozilishini yodda tuting.

### 133-mashq. Tez va to‘g‘ri o‘qing.

Olti just oq chinni choynakka to‘rt just ko‘k qopqoqni, to‘rt just ko‘k chinni choynakka olti just oq qopqoqni yopib bo‘ladimi?

Qaysi so‘zlar oxiridagi undosh tovush aytilmasa ham yoziladi?



### 134-mashq. O‘qing. Topishmoqning javobini toping.

Otdan baland, itdan past.

U yog‘i arra, bu yog‘i arra,  
O‘rtasida go‘sht barra.



Ko‘chiring. Aytlishi va yozilishida farq qilgan so‘zlarning tagiga chizing.



### 135-mashq. Maqollarni o‘qing.

1. Mehnatdan do‘sit ortar. 2. Boshingga qilich kelsa ham rost gapir. 3. Rejasiz ish — qolipsiz g‘isht. 4. Baland tog‘da qor bo‘lar, mard kishida or bo‘lar.

Ikkita maqolni ko‘chiring. Aytlishi bilan yozilishida farq qilgan so‘zlarning tagiga chizing.

### 136-mashq. Tushirilgan d va t harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring.

Do‘s., xursan., juf., balan., farzan., go‘sht., payvan., Samarqan., Toshken. .

To‘g‘ri yozdingizmi? Lug‘atdan tekshiring.

**137-mashq.** O'qing. Aytlishida undosh tushib qoladigan so'zni aytинг.

Odobli farzand — ota-onaning umrini uzaytiradi.

*Hadisdan*

Oramizdan qil o'tmaydi,  
Bizlar inoq, bizlar do'st.

*Shukur Sa'dulla*

Hidis va she'rni yodlang, yoddan yozing.



**138-mashq.** O'qing. Ko'chiring. Maqollarning mazmunini aytib berishga tayyorlaning.

Daraxt ildizi bilan kuchli,  
Odam — do'stlari bilan.

Rost so'zlagan yetar niyatga,  
Yolg'on degan qolar uyatga.



## **S O'Z ICHIDA KETMA-KET KELGAN BIR XIL UNDOSHLAR**

**139-mashq.** So'zlarni o'qing. Ketma-ket kelgan bir xil undosh harfli so'zlarni aniqlang.

Izzat, labbay, pillä, katta, hissa, chaqqon, pashsha, quvvat, sodda, kakku, qimmat, oppoq, arra, tanaf-fus, achchiq.

Ko'chiring. Tekshiring.

Ba'zi so'zlar ichida ikkita bir xil undoshlar ketma-ket keladi: *tabassum, izzat, chaqqon*.

### 140-mashq. O'qing.

1. Har yili tutamiz pilla: pilla emas, asl tilla.
2. Avval o'yla, keyin so'yla.

Ko'chiring. Ketma-ket kelgan bir xil undosh harfli so'zlarning tagiga chizing.

### 141-mashq. O'qing.

Abbos, Zunnun, Mannop, Musallam, Mukarram, Muyassar, Munavvar, Muqaddam, Muhayyo, Muhammad.

Ko'chiring. Tekshiring.



### 142-mashq. O'qing. She'r nima haqida yozilgan?

Do'stlar davrasi katta,  
Qirq xil millat jo'ramiz.  
Bir mayizni, albatta,  
Birga baham ko'ramiz.

*Shukur Sa'dulla*

Ko'chiring. Ketma-ket kelgan bir xil undosh harfli so'zlarning tagiga chizing.



Ketma-ket kelgan bir xil undosh harfli so'zlar bo'g'in ko'chirish uchun qanday bo'linadi?

### 143-mashq. Tez va to'g'ri o'qing. Ko'chiring.

Abdul-la ar-ralaydi, Mufar-rax al-lalaydi.

Nov-voy non yopar,  
Non-ni nov-vot deb sotar.

Bo'g'in ko'chirishda ketma-ket kelgan bir xil undoshlarining bittasi oldingi yo'lda qoldiriladi, ikkinchisi keyingi yo'lga ko'chiriladi: *kat-ta, iz-zat, say-yora*.

**144-mashq.** O'qing.

Yalqovlikni yiqqanmiz,  
Katta yo'lga chiqqanmiz.  
Yetish uchun maqsadga  
Toblanib chiniqqanmiz.

*Po'lat Mo'min*

Ketma-ket kelgan bir xil undosh harfli so'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'lib, she'rni yozing.

**145-mashq.** O'qing. So'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'lib yozing.

G'al-la, chinni, tonna, barra, issiq, naqqosh, chittak, qubba, rassom, qissa.



**146-mashq.** O'ylang, qaysi harflar tushib qolgan?

a	r	r	
i	k	k	
	k	k	i

a	v	v		l
t		l	l	a
h		m	m	a

Tushirilgan harflarni qo'yib, so'zlarni ko'chirish uchun bo'g'inga bo'lib yozing.



**147-mashq.** O'qing.

Kaptar ovchining to'riga ilindi. Ovchi uni tutib olmoqchi bo'ldi.

Buni chumoli ko'rib qoldi. Ovchining ko'ylagi ichiga kirdi. Yelkasini qattiq chaqdi.

Ovchi chiday olmadidi. U to'rni qo'lidan tashlab yubordi. Kaptar qutulib, uchib ketdi.

Matn necha qismdan tuzilgan? Qismlarning biri ikkinchisidan qanday ajratilgan?

Sarlavha qo'yib, matnni ko'chiring.



**148-mashq.** Topishmoqning javobini toping.

Katta varaq, dumি taroq,  
Akasining ismi — quroq.

v	a			a	k
---	---	--	--	---	---

Og'zi yo'g'-u tishi ko'p,  
Chaynagani to'sin, cho'p.

a			a
---	--	--	---

So'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'lib, topishmoqlarni ko'chiring.




**149-mashq.** O'qing. Sarlavha tanlang.

Yangi yil bayrami yaqinlashdi. Maktab zaliga katta archa o'rnatildi.

Bolalar archani o'yinchoqlar bilan bezashdi. Mana sharchalar, marjonlar. Ana xo'rozcha, ayiqcha, olmaxon. Bu — quyoncha.

Bolalar archa atrofida o'ynaydilar, qo'shiq aytdilar.



*Savollarga javob yozing.*

1. Qayerga katta archa o'rnatildi?
2. Bolalar nimani bezashdi?
3. Ular archa atrofida nima qiladilar?

**150-mashq.** O‘qing. Savollarga javob yozishga tayyorlaning.

## ARCHA

Mustaqillik maydonida juda baland va chiroyli yasatilgan archa o‘matilgan. Shahar va atrofdagi qishloqlardan kelgan bolalar xursand bo‘lib o‘ynaydilar. Jo‘shqin musiqa yangraydi. Ular Qorbobo va qorqiz bilan raqsga tushadilar va ashula aytadilar.

*Savollarga javobingizni yozing.*

1. Juda baland va chiroyli archa qayerda o‘matilgan?
2. Kimlar bu yerda xursand bo‘lib o‘ynaydilar?
3. Bolalar nima qilaqlilar?

Sizlar matabingiz va uyingizda Yangi yilni qanday kutib olgанинг haқida hikoya qilib berishga tayyorlaning.



**151-mashq.** Tushirilgan harflarni o‘rniga qo‘yib, so‘zларни ko‘chiring.

Balan., ch.royli, sha.ar, olma.on, sov.q, ya.malak, xursan., op.oq, jo‘shq.n.

Shu so‘zlardan qatnashtirib 2-3 ta gap tuzing.



**152-mashq.** O‘qing.

**14- yanvar** — Vatan himoyachilari kuni.

Qurolli kuchlarimiz mustaqil O‘zbekistonning qo‘riqchisidir. U xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini saqlaydi.

Ko‘chiring. Qurolli kuchlarimiz haqida nimalarni bilasiz? So‘zlab bering.

**153-mashq.** O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar bir yo‘ldan ikkinchi yo‘lga qanday ko‘chiriladi?

## ENG MO'TABAR SO'Z

Dunyoda bir so'z bor. U turli tillarda turlicha jaranglaydi. **Odamlar** bu so'zga **amal** qilib, **inoq**, tinch-totuv yashaydilar. **Ular** farovon va baxtiyor hayat kechiradilar. Bu **do'stlik** so'zidir.

Ajratilgan so'zлarni qoidaga moslab, bo'ginlarga bo'lib ko'chiring.



**154-mashq.** Maqollarni o'qing. Mazmunini tushuntirishga tayyorlaning.

Tinchlik — farovonlik yo'loshi.  
Tinchlik bo'lsa, yuz millat til topadi.  
Tinchlik — baxt, sog'lik — taxt.

Ko'chiring. Tekshiring.



## SO'Z VA GAP



So'z nima, gap nima? Ularning o'zaro farqini ayting.

**155-mashq.** Ko'chalardagi, mактабдаги, hovlingizдаги, uyingиздаги narsalarning nomini ayting.

Shu narsalardan ayrimlarining rangini, ta'm-mazasini, shaklini ayting.

Ayrim narsalarning harakatini ayting. Ko'рган narsalaringiz nechta? Sanang. Narsalar nomini, uning belgisi, sanog'i yoki harakatini aytishda qaysi so'zlardan foydalandingiz?

Tilimizda so'zлар nima uchun juda ko'п?

**156-mashq.** O'qing. So'z va gaplarni qiyoslang. So'z gapdan nimasi bilan farqlanadi?

So'zлар: kitob, do'st, asrang, u, o'rgatadi, yaxshi, o'qing, biz, g'amxo'r, besh.

**Gaplari:** kitobni yaxshi asrang. U kishilarga irodasi kuchli hamda g‘amxo‘r bo‘lishni o‘rgatadi. Kitob – bizning do‘stimiz.

Gaplarni ko‘chiring.

**So‘zlar** shaxs va narsa nomini, uning harakatini, belgisini, sanog‘ini bildiradi: *yil, bo‘linadi, saxiy, to‘rt, olam*.

**Gap** tugal fikrni bildiradi. *Quyosh olamni yoritadi va isitadi.*

**157-mashq.** Rasmlarni bir-biri bilan taqqoslaganda nimalarни ko‘rdingiz? Ularning nomini ayting.



Nuqtalar o‘rniga *katta* yoki *kichik* so‘zini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Namuna: *o‘rdak g‘ozdan katta.*

Ot tuyadan . . . Sigir fildan . . . Tulki quyondan . . .  
Kaptar chumchuqdan . . .



### 158-mashq. Bo‘g‘inlab o‘qing.

Balli, basseyn, g‘urra, do‘ppi, jarroh, muallim, Qud-dus, Muzaffar, Surayyo, Musharraf, yetti.

So‘zlarni ko‘chirish uchun bo‘g‘inlarga bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.



## **AXS VA NARSA NOMINI BILDIRGAN SO‘ZLAR**

159-mashq. Rasmni ko‘ring. Rasmda qaysi vaqt tasvirlangan?  
Unda kimlar va nimalarni ko‘ryapsiz?



K i m ? v a n i m a ? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni aytинг.

K i m ? *Ota*, . . .

N i m a ? *Qor, chana*, . . .

Rasm bo‘yicha matn tuzing va yozing.

Shaxs(kishi)lar nomini bildirgan so‘zlar kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Kim? — *ishchi, shifokor, dehqon, otboqar.*

Narsalar nomini bildirgan so‘zlar n i m a ? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. N i m a ? — *uy, chumchuq, chumoli, ot.*

**160-mashq.** O‘qing. K i m ? va n i m a ? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni ayting.

Bog‘ yashnaydi  
Bog‘bon bilan.  
Dala yashnar  
Dehqon bilan.

Uy yashnaydi  
Bola bilan.  
Tog‘ yashnaydi  
Lola bilan.

*Umarali Qurbanov*

Ko‘chiring. K i m ? va n i m a ? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar tagiga bitta chiziq chizing.

**161-mashq.** Sinfdagi narsalarning nomini ayting va yozing.

Sinf jihozlari: (ni m a ?) *parta*, ... .

O‘quv qurollari: (ni m a ?) *kitob*, ... .

**162-mashq.** O‘qing.

## IQTISODIY MUNOSABAT

**Onangiz** qo‘lingizga **pul** berdi. Do‘kondan **non** olishga bordingiz. Endi siz xaridorga aylandingiz. **Do‘kondor** bilan gaplashib, non sotib olasiz. Shunda **xaridor** bilan **sotuvchi** o‘rtasidagi oldi-sotdi munosabati yuzaga keladi. Buni iqtisodiy **munosabat** deyiladi.

Ajratilgan so‘zlarni ko‘chiring.  
Yoniga so‘rog‘ini yozing.



### 163-mashq. O‘qing. Yoddan yozishga tayyorlaning.

**Do‘sstar**, qanday ko‘ngilli  
Qishning kumush quchog‘i!  
**Bizni bahor**, **yoz** kabi  
Erkalaydi **qish** chog‘i.

*Zafar Diyor*

Yoddan yozing. Tekshiring. Ajratilgan so‘zlarga so‘roq bering.



Qanday so‘zlar kimlar? so‘rog‘iga javob bo‘ladi?

### 164-mashq. Rasmlarni ko‘ring. So‘roqlarga javob bering.



Kim? Kim?



Kimlar? Kimlar?

Avval kim? so‘rog‘iga, keyin kimlar? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni yozing.

Kim? ....  
Kimlar? ....



Qaysi so‘zlar n i m a l a r ? so‘rog‘iga javob bo‘ladi?

**165-mashq.** Rasmlarni ko‘ring, so‘roqlarga javob bering.



Nima? Nima? Nimalar? Nimalar?

Avval n i m a ? so‘rog‘iga, keyin n i m a l a r ? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni yozing.

Nima? ... .  
Nimalar? ... .

Bittadan ortiq shaxsni bildirgan so‘zlar k i m -  
l a r ? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Bittadan ortiq narsani bildirgan so‘zlar n i m a -  
l a r ? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

**166-mashq.** O‘qing. K i m l a r ? yoki n i m a l a r ? so‘rog‘ini  
berib, ko‘p shaxs va narsani bildirgan so‘zlarni aniqlang.

Halol ishlar otalar,  
Qolishmaydi onalar.  
Biz tomonga kelingiz,  
Po‘lat qanotlar!

Oppoq oltin paxtalar  
Kun nurida yaltirar.  
Paxtamizni ko‘ringiz,  
Po‘lat qanotlar!

*Zafar Diyor*

Ko‘chiring. K i m l a r ?, n i m a l a r ? so‘rog‘iga javob bo‘lgan  
so‘zlarning tagiga chizing.



**167-mashq.** O'qing. So'roq berib, shaxs va narsa nomini bildirgan so'zlarni aniqlang.

Kishilar qalam, ruchka, o'chirg'ich soladigan quticha o'ylab topganlar. Unga qalamdon deb nom qo'yishgan. O'quvchilar unda yozuv qurollarini saqlaydilar.

Ko'chiring. Kimlar? va nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.



**168-mashq.** So'zlarni o'qing va so'roq bering.

Yo'lovchi, kaptar, ayiq, ot, otboqar, paxta, paxtakor, bog'bon, traktor, traktorchi.

Avval kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni, keyin nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni yozing.

Kim? *Rassom*, ... .

Nima? *Bulbul*, ... .

**169-mashq.** O'qing. Kimlar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni aniqlang.

Bizning Vatanimiz — O'zbekiston. Vatanimizda o'zbeklar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, ruslar, armanlar, qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, tatarlar va boshqa xalqlar ahil yashaydilar, mehnat qiladilar.

Kimlar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni yozing.

**170-mashq.** O'qing. Nuqtalar o'rniga tushirilgan harflarni qo'yib ko'chiring. Nimalar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.

Keng dalalar, *č*rmon, d<sup>l</sup>ngizlar,  
G<sup>l</sup>zor, bog'lar — bari bizniki.

Dar.o, ko'llar, serhosil y.rlar,  
Okin to.lar hur.climniki.

*Shukur Sa'dulla*

Nima uchun shoir hamma narsani *bizniki*, *elimniki* deb ataydi?  
She'r haqida tushunganlaringizni so'zlab bering.



**171-mashq.** To'rtta k i m ? so'rog'iga javob bo'lgan va to'rtta  
n i m a ? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni yozing.  
Ular nimalarni bildiradi?

**172- mashq.** Rasmda tasvirlangan hayvonlarning nomini ayting.



Avval uy hayvonlari nomini, keyin yovvoyi hayvonlar nomini yozing.

Uy hayvonlari: *sigir*, ... .

Yovvoyi hayvonlar: *yo'lbars*, ... .

**173-mashq.** *Buzoq*, *bo'taloq*, *toycha*, *qo'zichoq* qaysi uy hayvonlarining bolasi?

Hayvonlar nomini ularning bolalari nomi bilan yonma-yon yozing.

N a m u n a : *sigir — buzoq*, ... .

### 174-mashq. O'qing.

Choynak choyni damlash uchun, piyola choyni ichish uchun, kosa ovqatni suzish uchun, qoshiq ovqatni yeyish uchun kerak bo'ladi. Shuning uchun ular ro'zg'or anjomlari deyiladi.

Bolta, arra, randa, bigiz, qaychi biror ishni bajarish uchun ishlataladi. Shuning uchun bular ish qurollari deyiladi.

Ro'zg'or idishlari va ish qurollarini bildirgan so'zlarni alohida-alohida yozing.

Ro'zg'or idishlari: (n i m a ? ) ... .

Ish qurollari: (n i m a ? ) ... .



### 175-mashq. O'qing. Har bir so'zga so'roq bering.

Qo'shiq, qo'shiqchi, sigir, molboqar, samolyot, baliq, ishchi, baliqchi, zavod, tadbirkor, qandolatchi, mактаб, bemor, shifokor.

Avval kim ?, so'ng nima ? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni yozing.



### 176-mashq. O'qing.

## XALOSKOR

O'ktam anhor bo'yidan ketayotgan edi. Uning ko'zi suvda oqib kelayotgan bolaga tushdi.

O'ktam darrov o'zini suvg'a otdi. Ancha qiyinchilik bilan bolani qirg'oqqa olib chiqdi. Bu Xayrulla ismli ikki yashar bola edi. Xayrullaga vaqtida yordam berildi.

Xayrullaning ota-onasi xaloskor O'ktamga rahmat aytishdi. Uning ota-onasiga minnatdorchilik bildirishdi.

*Savollarga javob bering va javobingizni yozing.*

1. O'ktam qayerda kimni ko'rib qoldi?
2. U nima qildi?
3. O'ktamga kimlar rahmat aytishdi?



**177-mashq.** Rasmlarga qarang. Narsalar nomini aytинг.



*Savollarga javob bering. Javobingizni yozing.*

Bog'da nimalar pishadi?

Polizda nimalar yetiladi?



**178-mashq.** O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang.

kechki payt oilamiz a'zolari yig'ilishadi otam mollariga yem beradilar onam kechki ovqat tayyorlaydilar opam kichik ukamga qaraydilar

Matnga sarlavha tanlang va uni ko'chiring. K i m ? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.

**179-mashq.** O'qing. N i m a l a r ? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni aniqlang.

## QUSHLAR QAYERDA TUNAYDI

Qarg'alar bog'larda va daraxtzorlarda tunaydi. Chittaklar bo'g'otning toza joyiga bekinib oladi. Karqurlar qor tagiga sho'ng'iysi. Bu qushlar qor inlarida uxlaydi.

Ikkita gapni ko'chiring. Gap nimalar haqida aytilganini bildirgan so'zning tagiga chizing.



**180-mashq.** So'roqlar o'rniga mazmunga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring. Shaxslarni bildirgan so'zlarining tagiga chizing.

(K i m ? ) ... paxta ekadi. (K i m ? ) ... kiyim tikadi.  
(K i m ? ) ... kasallarni davolaydi. (K i m ? ) ... rasm chizadi. (K i m ? ) ... bog'larni parvarish qiladi.



**181-mashq.** O'qing. Qavs ichida berilgan yaqin ma'noli so'zlardan mazmunga mosini tanlab, maqollarni yozing.

N a m u n a . 1. *Daraxt yaprog'i bilan ko'r kam, odam mehnati bilan ko'r kam.*

1. Daraxt (bargi, yaprog'i) bilan ko'r kam, odam (ishi, mehnati) bilan ko'r kam. 2. Daryo suvini (bahor, ko'klam) toshirar, odam qadrini (ish, mehnat) oshirar. 3. (Ko'klam, bahor) ko'r kam fasl. 4. Duo bilan (el, xalq) ko'karar, yomg'ir bilan (yer, zamin) ko'karar.

**182-mashq.** Ajratilgan so‘zlardan boshlab gaplar tuzing.

kishilar, **ilgari**, faqat, qora, yozardilar, bilan, siyoh; tayyorlangan, **siyoh**, qorakuya, va, yog‘dan; **hozir**, tayyorlanadi, siyoh, bo‘yoqdan; **siyoh**, har, xil, bo‘ladi, rangda.

Tuzgan gapingizdan birini yozing.

**183-mashq.** O‘qing.

Dov-daraxtning bog‘bonlar  
Soch-soqolin qiyishdi.  
Biz oqlagan daraxtlar  
Oppoq paypoq kiyishdi.

*Tursunboy Adashboyev*

Kimlar? va nimalar? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni aniqlab ayting.

*Soch-soqolin qiyishdi, oppoq paypoq kiyishdi deganda nimalarni tushunasiz?*

**184-mashq.** Kim? yoki nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan mazmunga mos so‘zni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Gapni bosh harf bilan boshlashni unutmang.

(Kim?) ... stol, stal, rom yasaydi. (Kim?) ... soatlarni tuzatadi. Yaylovda (nima?) ... o’tlaydi. Bog‘da (nima?) ... sayraydi.

Tekshirish uchun so‘zlar: *duradgor, poda, soatsoz, bulbul.*





## ISHILARNING ISMI VA FAMILIYASIDA BOSH HARF



Qaysi so‘zlar bosh harf bilan boshlanadi?

**185-mashq.** O‘qing.

Odamzod koinot sari ko‘tarilishni orzu qilgan. Xayolan uchar gilamda fazoga uchishgan. Semurg‘ qush qanotida uzoq manzilni ko‘zlashgan. Nihoyat, kishilarning orzusi ro‘yobga chiqdi.

Yuriy Gagarin birinchi bo‘lib fazoga parvoz qildi. Birin-ketin German Titov, Andriyan Nikolayev, Valentina Tereshkova, Vladimir Jonibekovlar fazoga yo‘l oldilar. Fazogirlarga shon-sharaflar bo‘lsin!

Fazogirlarning ismi va familiyasini yozib oling. Bosh harflarning tagiga chizing.

Kishilarning ismi va familiyasi **bosh harf** bilan boshlanadi.

**186-mashq.** O‘qing. Tushirilgan harflarni qo‘yib, matnni ko‘chiring.

### **KENG MAYDONDA**

Bolalar bo‘r bilan asfaltga rasmlar chizishdi. Maqsu. raketa rasmini chizdi. Maqsu.a chizgan gul juda chiroyli. Raja. quyosh rasmini chizdi va „Har doim bo‘lsin quyosh!“ deb yozdi.

Tekshiring. Qaysi so‘zlar bosh harf bilan boshlangan?

Shu so‘zlarning yozilishiga e’tibor qiling.



**187-mashq.** O'qing. Ismlarni ko'chirib, to'g'ri yozilishini yodda tuting.

Muhabbat, Bahrom, Nilufar, Ahror, Davron,  
E'tibor, Vohid, Hilola, Ravshan.



**188-mashq.** Rasmlarni ko'ring. Bolalarga ism qo'ying. Savollarga javob bering.



Kim don beryapti?  
... kaptarlarga don beryapti.

Kimlar koptok o'ynayapti?  
... va ... koptok o'ynashyapti.

Nuqtalar o'miga bolalar ismini qo'yib, javobingizni yozing.

**189- mashq.** O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang. Nechta gap o'qidingiz?

Gulnora Murodovaning Hilola degan singlisi bor u kichkina va sho'x Gulnora ukasiga Shukur Sa'dullanining jajji hikoyalaridan birini o'qib berdi hikoyadagi Hayotjon Hilolaga juda yoqdi

Gaplarning oxiriga nuqta qo'yib, matnni ko'chiring. Tekshiring.



**190-mashq.** O'ylang, yangi ism hosil qilish uchun qaysi harflarni qo'shish kerak?

	O	S	I	M
	A	Z	I	Z
U	Y	G'	U	N

S	A	I	D	
X	O	L	I	D
K	A	M	O	L

Hosil bo'lgan ismlarni yozing. Oralariga vergul (,) qo'ying. Tekshiring.



**191-mashq.** O'qing.

Bobomiz Alisher Navoiy 9- fevralda Hirot shahrida tug'ilganlar.

Bolalik chog'laridayoq hammaning e'tiboriga tushganlar. Juda odobli bo'lganlar. Ko'p kitob o'qiganlar. Zehnlari o'tkir bo'lganlar. Minglab misra she'rni yod bilganlar. Kichiklikda yozgan she'rlariga ustozlari ham katta baho bergan.

Bazida Navoiy bobomiz asarlarini o'qib, uqishga qiynalmaiz. Axir yozilganiga besh asrdan oshgan-da. Shuniing uchun ustozning „Bilmaganni so'rab o'rgangan — olim” degan nasihatlariga amal qilamiz, so'rab-so'rab o'rganamiz.

*Po'lat Mo'min*

*Savollarga javob bering.*

1. Bobomiz Alisher Navoiy qachon, qayerda tug'ilganlar?
2. Bobomiz hammaning e'tiboriga tushganlarining boisi nimada?
3. Bobomiz Navoiyning „Bilmaganni so'rab o'rgangan — olim” degan nasihatlariga amal qilasizmi?



**192-mashq.** Alisher Navoiyning hikmatli gaplarini o'qing.  
Mazmunini anglab olishga harakat qiling.

Yolg'onchi — kishi emas, yolg'on aytmoq mard-larning ishi emas.

Tiling bilan ko'nglingni bir tut.

Kimki ulug'roq, anga xizmat kerak,  
Ulki kichikroq, anga shafqat kerak.

Birinchi hikmatli gapni yodlang va yoddan yozing.



**193-mashq.** Nuqtalar o'mniga mazmunga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. ... .... soatlarni tuzatadi.
2. ... .... daraxtlarni parvarishlaydi.
3. ... .... avtobus haydaydi.
4. ... .... to'r bilan baliq tutadi.

Tekshirish uchun so'zlar: *bog'bon Majid A'zamov, soatsoz Bahodir Sodiqov, haydovchi Valijon Ahmedov, baliqchi To'lqin Saidov.*

Nima uchun soatsoz, bog'bon deyiladi?

**194-mashq.** So'zlardan gaplar tuzing.

She'rlarini, o'qiymiz, sevib, Quddus Muham-madiyning;

ertagini, Hamid Olimjonning, Said, o'qidi, „Oygul bilan Baxtiyor”;

Anvara, va, ko'rdilar, Ra'no, filmni, haqidagi, Alisher Navoiy.

Gaplarni yozing. Qaysi so'zlarni bosh harf bilan boshladitingiz?  
Nima uchun? Tekshiring.



**195-mashq.** Sinfingizdagi o‘quvchilar bajaradigan ishlar haqidagi gaplar tuzing.

N a m u n a : *Marhamat sinf kutubxonasiga qaraydi.*



**196- mashq.** Rasmlarni ko‘ring.



Berilgan rejaga qarab uch bo‘limli og‘zaki hikoya tuzing.

### R e j a

1. Aka-singil holsiz yotgan qushchani ko‘rib qolishdi.
2. Ular qushchani uyda parvarish qilishdi.
3. Qushchani uchirib yuborishdi.

Matnni o‘qing. Sarlavha qo‘ying.

Elyor va uning singlisi Nilufar bog‘da aylanib yurishardi. Ular qor ustida holsiz yotgan qushchani ko‘rib qolishdi. Nilufar qushchani qo‘liga oldi. Aka-singil uni uyga olib kelishdi. Qushchani yaxshi boqishdi. Bahor keldi. Kunlar isidi. Ular qushchani qo‘yib yuborishdi.

Matnni uch qismga bo'ling va har bir qismni xat boshidan boshlab yozing. Tekshiring.



### 197-mashq. O'qing. Ko'chiring.

## QALDIRG‘OCH

Erkdan nishona bo'lib,  
Nurli peshona bo'lib,  
Uchib keldi qaldirg‘och,  
Ko'kda otib keng quloch.  
Baxt-iqbol olib keldi,  
Istiqlol olib keldi.  
Erksevar yuraklarga  
Istiqlol olib keldi.

*Barot Yarash*

Siz qushlarga qanday munosabatda bo'lasiz? Shu haqida hikoya qilib berishga tayyorlaning.



## AYVONLARGA OO'YILGAN NOMDA BOSH HARF

### 198-mashq. O'qing.

Uy hayvonlari: ot, sigir, mushuk, it, echki, qo'y.  
Hayvonlarga qo'yiladigan nomlar: G'irko'k, Boychibor, Qashqa, Malla, Momiq, Mosh, Ziyrak, Qoplion, Targ'il.

Hayvonlarga qo'yiladigan nomlarni ko'chiring.

Hayvonlarga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi: *G'irko'k, Mosh, Targ'il.*

## 199-mashq. O'qing.

Matlubaning uyida Yo'lbars nomli iti va Ziyrak, Mosh nomli mushuklari bor. Matluba ularga mehribon.

Davron esa ot boqishga qiziqadi. Bo'sh qoldi deguncha buvasining Qorabayir, Boychibor nomli otlari yoniga yuguradi. Otlarni cho'miltiradi, ularga yem beradi. Bu ishlar Davron uchun juda zavqli.

Matnning birinchi qismini ko'chiring. Hayvonlarga qo'yilgan nomni bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

**200-mashq.** O'qing. Hayvonlarga qo'yilgan nomni bildirgan so'zlarni aniqlang.

Sirk maydoni. Qiziqchi iti Qoplon, mushugi Qoramosh, maymuni Chita bilan chiqdi. Ular ketidan aravachaga qo'shilgan ayig'i Maymoq yugurib keldi. Qoplon, Qoramosh, Chita aravachaga o'tirib olishdi. Tomoshabinalar ularni olqishlashdi.

Hayvonlar nomini ularga qo'yilgan nom bilan yonma-yon ko'chiring.

Namuna: *it — Qoplon, ... .*



**201-mashq.** O'qing. Hayvonlarga qo'yilgan nomlarni aytинг.

Rahimaning Malla nomli mushugining uchta chiroyli bolasi bor. Rahima oppog'iga Popuk, qoramtilriga Qoramosh, kichigiga Mitti deb nom qo'ygan.

Ko'chiring. Mushuklarga qo'yilgan nomni bildirgan so'zlarning tagiga chizing.



## 202-mashq. O'qing.

Omon bilan Ozoda — aka-singil. Omonning chiroyli iti bor. Unga Olapar deb nom qo'ygan. Singlisining Popuk degan mushugi bor. Popuk bilan Olapar bir-biriga juda o'rganishgan.

Bosh harf bilan yozilgan so'zlarni aniqlang. Ular nima uchun bosh harf bilan yozilganini tushuntiring.

**203-mashq.** O'qing. Hayvonga qo'yilgan nomni bildirgan so'zni aniqlang.

## TO'RTKO'Z

Bir kuni Shokir ota qo'shni qishloqdan kuchuk bo'lasini olib keldilar. Uni Shuhratjonga sovg'a qildilar.

Kuchukcha yum-yumaloq va juda sho'x edi. Shuhratjon unga To'rtko'z deb nom qo'ydi.

To'rtko'z yaxshi o'syapti. U Shuhratjonga juda o'rgangan. To'rtko'z nomini eshitsa, yugurib kelib erkalanadi.

*Savollarga javob bering va javobingizni yozing.*

1. Shokir ota qishloqdan nima olib keldilar?
2. Shuhratjon kuchukchaga qanday nom qo'ydi?
3. To'rtko'z kimga juda o'rgandi?



**204-mashq.** O'qing. Gapning mazmuniga mos so'zni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

O'ktamning iti ... qattiq vovullaydi.  
Singlimning mushugi ... erkalanib miyovlaydi.

Akam otiga ... deb nom qo'ygan.

Boychibor  
Tarzan  
Momiq

Hayvonlar nomini bildirgan so‘zlar tagiga bitta to‘g‘ri, ularga qo‘yilgan nomni bildirgan so‘zning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.



## AHAR, OISHLOQ, KO‘CHA, DARYO NOMLARIDA BOSH HARF

**205-mashq.** O‘qing.

Toshkent shahri, Buxoro shahri, Xumson qishlog‘i, Do‘slik ko‘chasi, Zarafshon daryosi.

Ko‘chiring. Shahar, qishloq, ko‘cha va daryoga qo‘yilgan nomlarni bildirgan so‘zlarning tagiga chizing.

Shahar, qishloq, ko‘cha va daryoga qo‘yilgan nomlar **bosh harf** bilan yoziladi.

**206-mashq.** O‘qing.

O‘zbekiston — yam-yashil diyor. Hayotbaxsh Amudaryo bilan Sirdaryo butun o‘lka bo‘ylab oqib o‘tadi.

Chirchiq, Zarafshon, Norin daryolari Toshkent, Samarqand, Namangan, Kattaqo‘rg‘on kabi shahar va qishloqlarni suv bilan ta‘minlaydi.

Ko‘chiring. Qaysi so‘zlarni bosh harf bilan yozdingiz? Nima uchun?



**207-mashq.** O‘qing. Ko‘chiring. Bosh harf bilan boshlangan so‘zlarning tagiga chizing.

Navoiy shahri, Amir Temur xiyoboni, Bobur ko‘chasi, Mustaqillik maydoni, Oybek ko‘chasi.

Bu shahar, xiyobon, ko‘chalar kimlarning sharafiga shunday nomlangan? Mustaqillik maydoni-chi?



## 208-mashq. O‘qing.

Men Toshkent shaharining Sobir Rahimov ko‘chasida turaman. Mening otam — Jo‘rayev Shuhratjon. Onam — Abdullayeva Muhayyo.

Buvim — Ahmedova Muhabbat G‘azalkent qishlog‘ida yashaydilar.

Quyidagi namunaga qarab, o‘zingiz haqingizda yozing.

N a m u n a: *mening ismim — ... Men ... shaharida (qishlog‘ida), ... ko‘chasida turaman. Onamlarning ismi — ... . Otamlarning ismi — ... .*

## 209-mashq. O‘qing, sarlavha toping.

Karim, Salim, Halim Oqsoy qishlog‘ida yashaydilar. Ular ikkinchi sinfda birga o‘qishadi.

Uch o‘rtoq soy bo‘yidagi chimga cho‘zilib, yozda qiladigan ishlari haqida uzoq suhbatlashishadi.

—Men yaylovg‘a ketaman. Qo‘y boqishda dadamga qarashaman. Itim Bo‘ribosarni ham o‘zim bilan olib ketaman. Tog‘da maza! — dedi Karim.

O‘rtoqlari ko‘z oldiga tog‘ manzarasi keldi.

*Sunnatilla Anorboyev*

*Savollarga javob bering.*

1. Oqsoy qishlog‘ida kimlar yashaydilar?
2. Uch o‘rtoq nima qilishdi?
3. Karim nima dedi?
4. O‘rtoqlarining ko‘z oldiga nima keldi?

Matndan Karimning gapini ko‘chirib yozing. Bosh harf bilan boshlangan so‘zlarning tagiga chizing. Nima uchun bu so‘zlar bosh harf bilan boshlangan?



**210-mashq.** O'qing. Bosh harf bilan yozilgan so'zlarga e'tibor bering.

Xorazming yashnar ko'rakam,  
Surxondaryo ishda ildam,  
Mehnatsevar Buxoro ham.  
Yaylov-yaylov  
Qo'yilaring bor,  
O'zbekiston, O'zbekiston.

*Po'lat Mo'min*

Ko'chiring. Joylarga qo'yilgan nomlarning tagiga chizing.



## AXS VA NARSA HARAKATINI BILDIRGAN SO'ZLAR

**211-mashq.** Rasmga qarang. Bolalarga ism qo'ying va hikoya tuzing.



Matnni o‘qing.

## QISHDA

Qor ko‘p yog‘di. Kun sovudi. Yer muzladi. Bolalar sevindilar va keng maydonda yugurdilar.

Ana, Vazira Qorbobo yasayapti. Latif singlisi bilan chana uchyapti. Vahob konki uchyapti.

Qish ham maza!

Shaxs va narsa nomini bildirgan so‘zлarni toping. Ular qanday so‘roqlarga javob bo‘lyapti?

Narsa va bolalar bajarayotgan harakatni bildirgan so‘zлarni aniqlang. Shu so‘zлar qanday so‘roqlarga javob bo‘lyapti?

**212-mashq.** „Qishda“ sarlavhali matnni o‘qing. Nima qildi?, nima qildilar? va nima qilyapti? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zлarni aniqlang va yozing.

Namuna: nima qildi? *Yog‘di*, ... .

Nima qildilar? *Sevindilar*, ... .

Nima qilyapti? *Yasayapti*, ... .

Nima qildi?, nima qildilar?, nima qilyapti? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zлar nimani bildiryapti?

Shaxs va narsalarning harakatini bildirgan so‘zлar nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Nima qildi? — *yozdi, uchdi*; nima qilyapti? — *yozyapti, uchyapti*; nima qiladi? — *yozadi, uchadi*.

**213-mashq.** Topishmoqni o‘qing, javobini toping.

Loy bo‘lib suyuladi,  
Qoli pda quyiladi.  
Xumdon-pechda pishadi,  
Mashinaga tushadi,  
Qurilishga ketadi.

Topishmoqni topishda sizga qaysi so‘zlar yordam berdi? Bu so‘zlar nimani bildiradi? Ular qanday so‘roqqa javob bo‘ladi?  
Harakatni bildirgan so‘zlarni ko‘chiring.

Namuna: nima qiladi? *Suyuladi*, ...



**214-mashq.** Harakatni bildirgan so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Qishda kunlar (nima qiladi?)....  
Qor ko‘p (nima qiladi?)....  
Suylar (nima qiladi?)....



**215-mashq.** O‘qing.

Yer tabiatning uch faslida xayrli mehnat qiladi. Qish kunlarida miriqib dam oladi. Qor va yomg‘ir namlarini yig‘adi, kelgusi yil hosili uchun asraydi. O‘zida kuch to‘playdi.

Bahor kelishi bilan insonga o‘z bag‘rini ochadi. Saxiy mehrini sochadi.

*Yayra Sa ‘dullayeva*

*Savollarga matndan javob topib o‘qing.*

1. Uch faslda yer nima qiladi?
2. Qish kunlarida-chi?
3. Bahor kelishi bilan nima qiladi?

*Savollarga javobingizni yozing.* Harakatni bildirib, nima qiladi? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar tagiga chizing.



### 216-mashq. Maqollarni o'qing.

Bulbul chamanni sevadi, odam — Vatanni. Mehnat baxt keltiradi. Ot egasini taniydi.

Ko'chiring. Harakatni bildirgan so'zlarni aniqlang va tagiga ikkita chiziq chizing. Tekshiring.



### 217-mashq. Rasmga qarang.



Nima qilyapti?

Nima qilyaptilar?

Birinchi rasmda harakatni necha kishi bajaryapti?

Ikkinci rasmda-chi?

Harakatni bildirgan so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'lyapti?

Bir shaxs bajargan, harakatni bildirgan so‘z nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Nima qildi?— o ‘qidi, nima qilyapti?— o ‘qiyapti, nima qiladi?— o ‘qiydi.

Agar so‘z birdan ortiq shaxslar bajargan harakatni bildirsa, nima qildilar?, nima qilyaptilar?, nima qiladilar? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Nima qildilar?— yozdilar, nima qilyaptilar?— yozyaptilar, nima qiladilar?— yozadilar.

**218-mashq.** Masmunga mos harakatni bildirgan so‘zlarni davom ettiring va ularni yozing.

O‘quvchi nima qiladi? O‘qiydi, ... .

O‘quvchilar nima qiladilar? O‘qiydilar, ... .

**219-mashq.** Topishmoqlarning javobini toping.

Qishda yaxlaydi, yozda eriydi.

s			v
---	--	--	---

Yozda kiyinadi, qishda yechinadi.

d					t
---	--	--	--	--	---

Qanoti yo‘q uchadi, oyog‘i yo‘q chopadi.

sh				l
----	--	--	--	---

Topishmoq matnini ko‘chiring. N i m a q i l a d i ? s o ‘ r o g ‘ i g a javob bo‘lgan so‘zlar tagiga chizing.



**220-mashq.** Mazmunga mos hayvon nomini qo'yib, gaplarni yozing. Gapni bosh harf bilan boshlashni unutmang.

... miyovlaydi. ... vovullaydi. ... ma'raydi.  
... kishnaydi.

Harakatni bildirgan so'zlar tagiga chizing.



**221-mashq.** O'qing. Tushirilgan harflarni qo'yib ko'chiring.

Soylar to'li. oqadi,  
Bog'lar kuli. boqadi,  
Bizga juda yoqadi  
Chamanzor har yoq.

A. Bo'ribo耶v

Harakatni bildirgan so'zlarning tagiga chizing. Ularga so'roq bering.

*Bog'lar kulib boqadi* gapini qanday tushunasiz?

**222-mashq.** So'zla, tik, ko'r, chal, uxla so'zlarini nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? savollariga moslab o'zgartiring.

Nima qildi? *Tikdi*, ... .  
Nima qilyapti? *Tikyapti*, ... .  
Nima qiladi? *Tikadi*, ... .

Shu so'zlardan bittasini qatnashtirib gap tuzing va yozing.



**223-mashq.** Mazmunga mos so'zlarini tanlab, gaplarni yozing.

Nima? ... kishnaydi, yo'rg'alaydi, chopadi.  
Nima? ... qurillaydi, sakraydi, suzadi.

Birinchi gap nima haqida aytilgan? U haqida nimalar deyilgan? Ikkinci gap-chi?



**224-mashq.** O'qing. Diktant yozishga tayyorlaning.

## KITOBNI SEVING

O'quvchi kitobni sevadi. Kitob bizni yer yuzidagi, suv ostidagi va osmondagи hayat bilan tanishtiradi. Kitob ahil yashashga, kishilarga yordam berishga o'rgatadi. Kitobni ko'p o'qing va seving.

Diktantni yozing.

## 8- MART — ONAJONLAR BAYRAMI!

**225-mashq.** O'qing. Ko'chiring.

Sakkizinchи Mart bilan  
Onamlarni qutlayman.  
Qo'llariga gul tutib,  
Sog'-omonlik tilayman.

Harakatni bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

**226-mashq.** Savollarni o'qing va javob berishga tayyorlaning.

1. Biz mart oyida qaysi bayramlarni nishonlaymiz?
2. 8- Mart bayramini nima uchun ardoqlaymiz?

**227-mashq.** O'qing.

*Hurmatli onajon!*

*Sizni 8- Mart bayrami bilan tabriklayman.  
Sizga sog'liq, quvonch va baxt tilayman.*

*O'g'lingiz Murod*

Siz ham onangizga, bivingizga, opangizga tabriknoma yozing.  
Oxiriga ismingizni yozib qo‘ying.

**228-mashq.** O‘qing. She’rni yodlang.

Sakkizinchi mart bugun,  
Quvonchlarim bir jahon.  
Bayramingiz muborak,  
Aziz ona, onajon!

So‘zlari bol, durdona,  
Mehnatda eng mardona,  
Olam ichra yagona  
Sizsiz, ey aziz ona!

*Jumaniyoz Jabborov*

**229-mashq.** Rasmlarga qarang.



Rejaga qarab uch bo‘limli og‘zaki hikoya tuzing.

**R e ja**

1. Qushlar yemagi qor tagida qoldi.
2. Bolalar yemakni donxo‘rakka sochdilar.
3. Ular qanotli do‘stilarini ko‘rib sevindilar.

Matnni o‘qing. Sarlavha tanlang. Matnni uch bo‘limga bo‘ling.

Qor ko‘p yog‘di. Qushlar yemagi qor tagida qoldi. Bolalar don, non uvoqlarini olib keldilar. Ular qanotli do‘satlari yemagini donxo‘rakka sochdilar. Qushlar maza qilib donlashdi. Bolalar ularni ko‘rib juda sevindilar.

Sarlavha qo‘yib, matnning har bir bo‘limini xat boshidan yozing. Tekshiring.



**230-mashq.** Mazmunga mos qush nomlarini qo‘yib, gaplarni yozing. Harakatni bildirgan so‘zlar tagiga chizing.

... chirqillaydi. ... qag‘illaydi. ... kukulaydi. ... chiroyli sayraydi.

Qo‘yish uchun so‘zlar: *olaqarg‘a, chumchuq, kakku, bulbul.*



**231-mashq.** Maqollarni o‘qing. Ko‘chiring.

Kamtar bo‘lsang, obro‘ ortar,  
Manman bo‘lsang, ensa qotar.

Ko‘kka boqma, ko‘pga boq.

O‘ylang, maqollarning mazmunini qanday tushuntirish mumkin?

*Ortar, boq so‘zlariga yaqin ma’noli so‘z tanlang.*

**232-mashq.** Savollar asosida hikoya qilib bering.

1. Sen ertalab nima qilding?
2. Hozir nima qilyapsan?
3. Kechqurun nima qilasan?

Hikoyangizda shaxsning harakatini bildirgan qaysi so‘zlardan foydalandingiz? Shu so‘zlar qaysi so‘roqlarga javob bo‘ladi?

**233-mashq.** O'qing.

Bahor keldi. Mevali daraxtlar qiyg'os gulladi. Jiblajibon, qaldirg'ochlar uchib keldi. Ular in qurishyapti.

Ko'chiring. Tekshiring.

Harakatni bildirgan so'zlar tagiga ikkita chiziq chizing.

**234-mashq.** Berilgan so'zlardan ikkita gap tuzing va yozing.

Vatanimiz, bizning, va, bepoyon, serquyosh; sevadi, mehnatni, xalqimiz.

Birinchi gap nima haqida aytilgan?

Ikkinci gap kim haqida aytilgan? Xalqimiz haqida nima deyilgan?

**235-mashq.** O'qing.

Tili yo'q, oyog'i yo'q,  
Hisoblaydi, yuradi.  
Kecha-kunduz yursa ham,  
U bir joyda turadi.



Topishmoqni ko'chiring, javobini yozing. Tekshiring.  
Harakatni bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

**236-mashq.** O'qing.**NAVRO'Z – BAHOR BAYRAMI**

21- mart kuni o'lkamizga Navro'z kirib keladi. Kun bilan tun baravarlashadi. Navro'z— xalqimizning sevimli bayrami. Shu kundan haqiqiy bahor boshlanadi.

Quyosh olamni isitadi. Daraxtlar kurtak chiqaradi, gullaydi. O'tlar ko'karadi. Qir-adirlarda bahor gullari ochiladi. Ariqlarda suvlar shildirab oqadi.

Qizlar sochlariiga tolbargakdan sochpopuk taqadilar. Momolarimiz sumalak, bobolarimiz halim pishiradilar.

Ikkinci va uchinchi bo'limlarni ko'chiring. Shaxs va narsa harakatini bildirgan so'zlarni aniqlab, tagiga chizing.

### 237-mashq. O'qing.

#### KO'K SOMSA

Kelganda Navro'z,  
Ismaloq, yalpiz  
Terib biz uch qiz  
Keltirdik uyga.

Suyub o'pdilar,  
Oyim chopdilar,  
Somsa yopdilar,  
To'ydir xushbo'yga.

Qilib biz maza  
Yedik ko'k somsa.  
Der ukam Hamza:  
— Uy o'xshar to'yga.

*Inobat Boboqulova*

She'rni yod oling. To'rt qatorini yoddan yozing.





# **AXS VA NARSA BELGISINI BILDIRGAN SO'ZLAR**

**238-mashq.** Rasmga qarang. Nimalarni ko‘ryapsiz?



Savollarga javob bering. Javobingizni yozing.

*Qanday bino? Katta, hashamatli bino.*

*Qanday ko'cha? . . . . .*

Qanaqa *daraxt*? . . . . .

Shaxs va narsaning belgisini bildirgan so‘zlar qanday?, qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Qanaqa? *Yashil, ko‘rkam* daraxt. Qanday? *Katta, hashamatli* bino.

**239-mashq.** O'qing. Narsaning belgisiga qarab, topishmoqning javobini toping.

Usti yo'l-yo'l, sariq, ko'k,  
Beqasamga o'xshaydi.  
Shirinligi til yorar,  
Hidi o'tkir, bo'yi past.

h

Topishmoq handalak haqida aytiganini bilishingizda sizga qaysi so‘zlar yordam berdi? Shu so‘zlarga narsani bildirgan so‘zlar orqali so‘roq bering: *usti* (qanday?) *yo‘l-yo‘l*; *rangi* (qanaqa?) *sariq, ko‘k*; *hidi* (qanaqa?) *o‘tkir; bo‘yi* (qanday?) *past*.

Topishmoqni ko‘chiring. Handalakning belgisini bildirgan so‘zlarning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

**240-mashq.** O‘qing va qaysi hayvon (nima) haqida yozilganini aniqlang.

Uning qulog‘i uzun, dumi kalta. Terisi yozda kul rang, qishda oq.

Matnda quyon haqida yozilganini topishingizda qaysi so‘zlar yordam berdi? Bu so‘zlar nimani bildiradi? Qaysi so‘roqqa javob bo‘ladi? Masalan: *qulog‘i* (q a n d a y ? ) *uzun, ... .*

Ko‘chiring. Narsaning belgisini bildirgan so‘zlar tagiga chizing.



**241-mashq.** O‘qing. Tez aytishga tayyorlaning.

O‘ktam ko‘m-ko‘k ko‘rkam ko‘klam rasmini ko‘m-ko‘k qalamda chizdi.

Ko‘chiring. Qanaqa? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarning tagiga chizing. Shu so‘zlar nimani bildiryapti?

*Ko‘klam* so‘zini ma’nosи yaqin qaysi so‘z bilan almashtirish mumkin?



**242-mashq.** Berilgan so‘zlardan gap tuzing va yozing.

keltirdi, otam, baliqchalar, ko‘k, chipor, qora, qizil;

akvariumga, soldik, baliqchalarni, biz;  
suzishdi, baliqchalar, o'tlar, yam-yashil, orasida.

Baliqchalar belgisini bildirgan so'zlarni aniqlab, to'lqinli chiziq bilan belgilang.

**243-mashq.** Qanday?, nima?, nima qiladi?  
so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar bilan gap tuzing va yozing.

Namuna. *Mayin shamol esadi.*

Mayin, yam-yashil, sayroqi; shamol, qushlar, o'tloq;  
kuylaydi, yashnaydi, esadi.

Narsalarni bildirgan so'zning tagiga bitta to'g'ri chiziq, uning  
belgisini bildirgan so'zning tagiga to'lqinli, harakatni bildirgan  
so'zning tagiga ikkita to'g'ri chiziq chizing.



**244-mashq.** O'qing. Javobini toping.

— Mayda, yoqtiday qizil,  
Shirin, nordon, xilma-xil.  
Qalin, taxir po'sti bor,  
Hamma yerda do'sti bor.  
Sen ayt-chi, qizim Gulnor!  
— Bumi, dadajon, ... .

*G'afur G'ulom*



Sizga topishmoqning javobini topishingizda qaysi so'zlar yordam berdi? Shu so'zlar nimani bildiradi?

Nuqtalar o'miga javob so'zni yozib, she'mi ko'chiring.  
Qanday? Qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar tagiga chizing.



## 245-mashq. O'qing.

9-aprel — Amir Temur bobomizning tug'ilgan kunlari. Ular Kesh shahri atrofidagi **obod joyda** tug'ilganlar.

Amir Temur juda **nozik didli** kishi bo'lganlar. Tabiat go'zal yarlarni yoqtirganlar. O'zları dam olgan **chiroylı joylarnı** obod qildirganlar. Ular nihoyatda **adolatlı podshoh** bo'lganlar.

Ajratilgan so'zlarni ko'chiring.

Qaysi so'zlar belgini bildiryapti? Ularning tagiga chizing.



## 246-mashq. O'qing.

Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim.

Hech kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmadim. Ulug'larni og'a qatorida, kichiklarni farzand o'rnida ko'rdim.

*Amir Temur*

Ko'chiring. Amir Temur bobomizning ibratli fazilatlarini sanang.



**247-mashq.** Mazmunga mos so'zlarni qo'yib, hayvonlarni tasvirlang va yozing.

(Q a n d a y ? ) *Kichkina, chaqqon, malla* olmaxon.

(Q a n d a y ? )... quyon. (Q a n d a y ? )... bo'ri.

(Q a n a q a ? )... tulki.

**248-mashq.** Ikki narsani qarama-qarshi belgisiga ko'ra qiyoslang. Mazmunga mos so'zlarni qo'yib gaplarni yozing.

Rangiga ko‘ra. *Ko‘mir* (q a n a q a ?) *qora*, *bo‘r esa* (q a n a q a ?).... .

Mazasiga ko‘ra. *Garmdori* (q a n d a y ?) *achchiq*, *qand esa* (q a n d a y ?).... .

Shakliga ko‘ra. *Qarg‘a* (q a n d a y ?) *katta*, *chumchuq esa* (q a n d a y ?) .... .

Har qaysi gapdagi narsaning belgisini bildirgan so‘zlarning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

Narsalarning belgisini bildirgan so‘zlar orasida qarama-qarshi ma’noli so‘zlar bor. *Yozda issiq*, *qishda esa sovuq*.

**249-mashq.** Qarama-qarshi ma’no bildirgan *yumshoq* — *qattiq*, *katta* — *kichik*, *past* — *baland* so‘zlaridan foydalanib, uchta gap tuzing.



**250-mashq.** O‘qing.

## XONQIZI

Usti qizil, qora-qora nuqtali, yumaloq qo‘ng‘izchani ko‘rgansiz. Bu beozor jajji qo‘ng‘izchani xonqizi deyishadi.

Xonqizi yashil yaproqlardagi mayda hasharotlarni eyedi.

U juda foydali qo‘ng‘izcha.

Ko‘chiring. Narsaning belgisini bildirgan so‘zlarning tagiga chizing.



**251-mashq.** O'qing.

## QUYON VA TIPRATIKAN

**Oppoq** va yunglari **sip-silliq** quyoncha tipratikanga qarab:

- Og'aynijon, kiyiming juda ham **xunuk** va **tikanli-ya**,
- dedi.

— To'g'ri, **rost** gapni aytasan, biroq bu tikanlarim meni it va bo'rilarning **o'tkir** tishidan saqlaydi. Sening **oppoqqina**, **yumshoqqina** to'ning ham shunday xizmat qiladimi? — dedi tipratikan.

Quyon javob berolmay, xo'rsinib qo'ydi.

*Savollarga javob bering.*

1. Quyon tipratikanga nima dedi?
2. Tipratikan quyonga nima deb javob berdi?
3. Quyon nima uchun xo'rsinib qo'ydi?

Ajratilgan so'zlarga so'roq bering va yozing. Shu so'zlar nimani bildiryapti?

Namuna. Qanaqa? *Oppoq, ... .*

**252-mashq.** Maqollarni o'qing. Belgini bildirgan so'zlarni aniqlang.

O'rganish oson, o'rgatish qiyin.

To'g'ri odam egri so'zdan or qilar.

Ko'chiring. Qanday? so'rog'iga javob bo'lgan, qarama-qarshi ma'no bildirgan so'zlarni aniqlang va tagiga chizing.

**/253-mashq.** Berilgan so‘zlardan bahor, shamol, quyosh, maysa haqida gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdan hikoya hosil bo‘lsin.

Go‘zal, yoqimli, kuchli, ko‘m-ko‘k; bahor, shamol, quyosh, maysa; keldi, esdi, qizdirdi, ko‘kardi.

Hikoyaga sarlavha qo‘yib yozing. Narsalar belgisini bildirgan so‘zlarning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.



**254-mashq.** O‘qing. Narsalar nomini, belgisini, harakatini bildirgan so‘zlarni aniqlang.

Tugmachagul, boychechak,  
Qizil, pushti gul, chechak.  
Oq nastarin, gulkayri –  
Bog‘da o‘sadi bari.  
Yoqimli hid sochadi,  
Bahri dilni ochadi.

*Musharraf Zayniddinova*

Yozing.

Narsalar nomini bildirgan so‘zlar: n i m a ? *tugmachagul*, ... .

Narsalar harakatini bildirgan so‘zlar: n i m a q i l a d i ?  
*o‘sadi*, ... .

Narsalar belgisini bildirgan so‘zlar: q a n a q a ?  
*qizil*, ... .



**255-mashq.** Matnni o‘qing va qayta hikoya qilib bering. Matnga sarlavha tanlang.

Nazarbek qishlog‘ida dala-hovlimiz bor. Yozni oilamiz o‘sha yerda o‘tkazadi. Otam o‘z qo‘llari bilan bog‘ yaratganlar. Yoz bo‘yi mevalar birin-ketin pishib yetiladi. Poliz va sabzavot ekinlari ham yaxshi hosil beradi. Onam qishga mevalardan quritadilar va sabzavotlardan tuzlamalar tayyorlaydilar.

## Reja

1. Yozni dala-hovlida o'tkazamiz.
2. Bog' mevalari, poliz, sabzavot ekinlari.
3. Hosilni qishga asrash ishlari.

Berilgan reja yordamida uch bo'limli bayon yozing.  
Matnning har bir bo'limini xatboshidan yozishni unutmang.



**256-mashq.** Maqollarni o'qing, mazmunini aytib berishga tayyorlaning.

Mehnat mardni yengolmaydi.

Xalq haq ishni qo'llaydi.

Kulgi chehrani yoritadi.

Ikki maqolni ko'chiring. Gap kim yoki nima haqida aytildiganini bildirgan so'zning tagiga bitta chiziq, u haqda nima deyilganini bildirgan so'zning tagiga ikkita chiziq chizing.



## **ANOQ VA TARTIBNI BILDIRGAN SO'ZLAR**

**257-mashq.** O'qing.

Tok ko'chati o'tqazilgandan so'ng **uchinchi** yili hosilga kiradi. Yetilgan tokdan **yuz** kilogrammgacha uzum hosili olinadi. Bir bosh uzum **sakkiz yuz** gramm bo'lishi mumkin. Uzumning husayni, qirmiska kabi navlari **uch-to'rt** oy buzilmay saqlanadi.

Qancha?, nechanchi? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga namunadagidek yozing.

Namuna. (Nechanchi?) *Uchinchi yili, (qancha?) yuz kilogramm.*

**258-mashq.** O'qing. Nechanchi? va qancha? so'roqlariga javob bo'lgan so'zлarni aniqlang.

Abbos o'n beshinchi maktabning ikkinchi sinfida o'qiydi. Bu sinfda yigirma olti o'quvchi o'qiydi. Ulardan o'n bitta o'quvchi a'lochi.

Nechanchi? va qancha? so'roqlariga javob bo'lgan so'zлarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

Namuna. (Nechanchi?) *O'n beshinchi maktab, ... .*

Shaxs va narsaning sanog'ini bildirgan so'zlar nechta?, qancha? so'rog'iga javob bo'ladi.

Narsa va shaxsning tartibini bildirgan so'zlar nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladi.

**259-mashq.** Topishmoqlarni o'qing. Javobini toping.



Bir chuqurda ming chuqur,  
Chuqurni igna cho'qir.



Qirq ko'y lagi bor,  
Bir tugmasi yo'q.

Ko'chiring. Narsalar sanog'ini bildirgan so'zlar tagiga chizing.

Topishmoqlar javobini topishda sizga qaysi so'zlar yordam berdi? Shu so'zlar qaysi so'roqqa javob bo'lyapti?



**260-mashq.** Topishmoqni o'qing. Javobini toping.

Biz edik, biz edik,  
O'ttiz ikki qiz edik.

Ikki safga tizildik,  
Birin-ketin uzildik.

Ko'chiring. Sanoqni bildirgan so'zlar tagiga chizing.



**261-mashq.** O'qing. Nuqtalar o'miga mazmunga mos so'zlarni qo'yib yozing.

Bir yilda (nechta?)... fasl bor. Har faslda (necha?)... oy bor. Bir oyda (qancha?) ... hafta bor.

Har haftada (qancha?)... kun bor. Bir kecha-kunduz (necha?) ... soatdan iborat. Bir soat (necha?) ... daqiqa.

Hozir (nechanchi?)... oy. Bugun oyning (nechanchi?) ... kuni.

Narsalarning sanog'i va tartibini bildirgan so'zlarni tegishlicha belgilang.

**262-mashq.** Maqollarni o'qing. Mazmunini tushuntirishga tayyorlaning.

Egri ish ellik yildan keyin ham bilinadi.

Ilmsiz bir yashaydi, ilmli ming yashaydi.

Bir mayizni qirq kishi bo'lib yebdi.

Ko'chiring. Sanoqni bildirgan so'zlarni belgilang.

**263-mashq.** O'qing. Sanoqni bildirgan so'zlarni aniqlang.

O'nta qo'l egolmas boshni,  
Chirillatar yuz kilo toshni.  
Yo'lini topsa edi To'lanboy,  
Ko'tarardi o'zi quyoshni.

*Yong'in Mirzo*

Qirq og'ayni botirlar  
Qaydan kelayotirlar?

Balki qirq kunlik yo'ldan  
Yeldek yelayotirlar.

*Boborahim Omonov*

Sanoqni bildirgan so'zlarga so'roq bering va o'zi bog'langan so'z bilan birga yozing.

## 264-mashq. O'qing.

### PUL

Pul mahsulot va xizmatlar qiymatining o'lchovidir. Bozorda dehqon va hunarmand o'z mahsulotini sotadi. Xaridor o'ziga kerakli mahsulotni sotib oladi. Usta imorat qurib beradi. Haydovchi yukni uyga eltib beradi. Bu xizmatlarga pul to'lanadi.

Demak, mahsulotni va xizmatni iste'molchi pulga almashtiradi.

Barcha turdag'i xizmatlarni sotish va sotib olishda naqshli qog'oz va tanga pullar ishlatiladi.

Tanga pullar 5, 10, 25, 50 so'mlik va qog'oz pullar 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000 so'mlik qiymatdagi ko'rinishga ega.

*Savollarga javob bering.*

1. Mahsulot va xizmatlarni sotishda va sotib olishda nima ishlatiladi?

2. Qog'oz pullarning so'mlarda belgilangan turlaridan qaysilarini bilasiz?

Raqam bilan berilgan tanga pullarning qiymatini so'z bilan yozing.

Namuna. *O'n so'm, ... .*



**265-mashq.** She'riy topishmoqni ifodali o'qing, javobini ayting.

Ikki qo'lda nechta barmoq?  
Kel sanaylik, jon o'rtoq:  
Bir, ikki, uch, to'rt, besh, ...  
Jami qancha, do'stim Esh?

*Ne'mat Ro'zimuhamedov*

Ko'chiring. Sanoqni bildirgan so'zlarni so'roq berib aniqlang.



## GAP

**266-mashq.** O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang.

odamlar cho'lga suvni keltirdilar paxtakorlar qaqrangan yerkarda paxta ekishdi bog'bonlar mevazor bog'lar yaratishdi

Matnni ko'chiring. Birinchi gap kimlar haqida aytilgan? Shu so'z tagiga bitta chiziq chizing. Odamlar haqida nima deyilgan? Bu so'z tagiga ikkita chiziq chizing. Ikkinci va uchinchi gaplar kimlar haqida aytilgan va ular haqida nima deyilgan?

**267-mashq.** O'qing.

O'quvchilar məktəb hovlisiga gilos ko'chatini o'tqazdilar. Gilos mart oyida oppoq gulladi. Atrofqa yoqimli hid tarqaldi. Gilos may oyida pishadi. Yosh bog'bonlar mehnatlari mevasidan yeydilar.

Matnni ko'chiring. Har bir gapdan shu gap kimlar yoki nima haqida aytilganini va ular haqida nima deyilganini bildirgan so'zlarni aniqlang va tagiga chizing.



Gapning asosini qanday aniqlaymiz va belgilaymiz?

Gap kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan so‘z bilan ular haqida nima deyilganini bildirgan so‘z gapning asosiy mazmunini bildiradi. Bu gapning asosi bo‘ladi.

Gapning asosini belgilash uchun shu gapni o‘qiymiz. *O‘quvchi mehnatni sevadi*. Avval so‘roq berib, gap kim (yoki nima) haqida aytilganini bildirgan so‘zni topamiz: (k i m ?) *o‘quvchi*; uni tagiga bitta chiziq chizib belgilaymiz.

Keyin so‘roq berib u (*o‘quvchi*) haqida nima deyilganini bildirgan so‘zni topamiz: (nima qiladi?) *sevadi* va uni tagiga ikkita chiziq chizib belgilaymiz.

(K i m ?) *O‘quvchi mehnatni (nima qiladi?) sevadi*.

(N i m a ?) *Mehnat kishini (n i m a q i l a d i ?)* *ulug‘lavdi*.



**268-mashq.** Mazmunga mos so‘zni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

O‘lkamizga yoqimli ... keldi. Mevali ... gulladi. Har xil ... chiroyli ochildi. Dalalarda ... ko‘paydi.

Qo‘yish uchun so‘zlar: *bahor, ish, daraxtlar, gullar*.

Har bir gapning asosiy mazmunini bildirgan so‘zlarni aniqlang va ularni tagiga tegishli chiziq chizib belgilang.



**269-mashq.** Gapning mazmuniga mos so‘zni qo‘yib, ko‘chiring.

Dala, bog‘larni qor.... Bu vaqtida tipratikanlar shox-shabba tagida.... .

Mana bahor ham.... Ona-tabiat.... Tipraktikanlar qish uyqusidan.... .

Har bir gapning asosini (mazmunini) bildirgan so‘zlarni aniqlab tagiga chizing.

Qo‘yish uchun so‘zlar: *uxlaydi, keldi, qopladi, turdi, uyg‘ondi*.

### 270-mashq. O‘qing.

sevadi, juda, yer, mehnatni;  
yaxshi, yerdan, olinadi, hosil.

*Savollarga javob bering.*

1. Berilgan so‘zlar nimani bildiradi?
2. Shu so‘zlardan gap hosil bo‘lishi uchun nima qilish kerak?
3. So‘zlardan gap tuzing va yozing.

So‘zlar mazmun jihatidan o‘zaro bog‘lanib, gap hosil qiladi.

### 271-mashq. O‘qing va yozing.

Mevali daraxtlar bahorda gullaydi.

Gapda o‘zaro bog‘langan so‘zlarni aniqlang.

Buning uchun avval gapning asosini aniqlang va belgilang.

(N i m a l a r ? ) Daraxtlar (n i m a q i l a d i ? ) gullaydi.

*Daraxtlar* so‘zidan mazmunan unga bog‘langan so‘zga so‘roq bering:

(q a n d a y ? ) *mevali daraxtlar.*

*Gullaydi* so‘zidan mazmunan unga bog‘langan so‘zga so‘roq bering: (qachon?) *bahorda gullaydi.*

Gapni yozing. So‘zlarning bog‘lanishini quyidagicha belgilang.

(Nimalar?) daraxtlar, (nima qiladi?) gullaydi.

q a n d a y ?

*Mevali*

q a c h o n ?

*bahorda*



**272-mashq.** Mazmunga mos so‘zlarni qo‘yib, gaplarni yozing.

Bahorda (nimalar?) yashnaydi. Qirda (nimalar?) ochiladi. Egatlarga (nimalar?) ekildi. Yaylovda (nimalar?) o‘tlaydi.

Gap nimalar haqida aytiganini, ular haqida nima deyilganini bildirgan so‘zlar tagiga chizing.



**273-mashq.** Maqollarni o‘qing. Ko‘chiring. Gapdagi so‘zlarning bog‘lanishini namunadagidek chizmada ko‘rsating.

N a m u n a . *Odob bozorda sotilmaydi.*

Odob bozorda sotilmaydi. Do‘s t kulfatda sinaladi. Qanoat qorin to‘ydirar. Intizomli lashkar yengilmas.

Gap kim yoki nima haqida aytiganini bildirgan so‘zning tagiga bitta chiziq chizing.

**274-mashq.** O‘qing. Matnda nechta gap bor?

o‘quvchilar məktəb bog‘ida ishlədilər qızlar bog‘ yo‘llarını supurdilar o‘g‘il bolalar daraxtları oqladilar bog‘ yana ham ko‘rkamlashdi

Matnnı ko‘chiring. Har bir gapning asosini belgilaydigan so‘zlarning tagiga chizing.

**275-mashq.** O‘qing. Avval bahorga tegishli gaplarni, keyin yozga tegishli gaplarni yozing.

Quyosh kuchli qizdiradi. Polizda qovunlar pishadi.

O‘tloq yam-yashil maysa bilan qoplanadi. Mevali daraxtlar gullaydi. Bahorda kunlar isiydi.

Ikkinchи gapdagи o‘zaro bog‘lanishni chizmada ko‘rsating.



**276-mashq.** Maqollarni o‘qing. Mazmunini tushundingizmi?

Odamning qo‘li cho‘lni bo‘ston qiladi.

Mehnat bilan yer ko‘karadi.

Ko‘chiring. So‘zlarda **о** bilan **о‘** harflarining talaffuzi va yozilishiga e’tibor bering.



**277-mashq.** Rasmlarga qarang. Har bir rasmda qanday ishlar tasvirlanganini ayting.



Uch bo‘limli hikoya tuzing. Sarlavha tanlang va yozing.



**278-mashq.** Maqollarni o‘qing. Mazmunini tushuntiring.

Mehnat qilsang, ko‘ksing tog‘,  
Hurmat qilsang, diling bog‘.  
Xalqqa xizmat — oliv himmat.

Ko‘chiring. So‘zlarda h va x harflarining yozilishiga va  
tovush talaffuziga e’tibor bering.



## AKRORLASH

**279-mashq.** So‘zлами to‘g‘ri ayting va to‘g‘ri yozing.

Bahor, lavlagi, lug‘at, baland, minnatdor, sabzi,  
Samarqand, Toshkent, farzand, do‘sit, ozod, obod, hisob,  
kitob.

Tekshiring. Yozilishini tushuntiring.



**280-mashq.** Ifodali o‘qing.

## OTA-ONA

Ota-on — ikki so‘z,  
Biri qosh-u biri ko‘z.  
Bir-biridan qimmatli,  
Mehri daryo himmatli.  
Ular o‘zin o‘ylamas,  
Farzandi sog‘ bo‘lsa bas.  
Goh yiqilib, tursa ham,  
Gohi yig‘lab, kulta ham,  
Hamma siga chidarlar,  
Bular qo‘sha chinorlar.

*Tolib Yo‘ldosh*

She’rning birinchi to‘rt qatorini yod oling va yoddan yozing.

## 281-mashq. O'qing.

Bahor kunduziday yashna, yosh avlod,  
Yo'ling yorug' bo'lsin, gulshaning obod.

*M. Shayxzoda*

Ko'chiring. Yozilishi tekshiriladigan so'zlarining tagiga chizing.


**282-mashq.** So'zlarini bo'g'inlab to'g'ri o'qing va ko'chirish uchun bo'g'inlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.

si-ngil	sing-lim	jaj-ji
ko'ngil	ko'nglim	voqeа
bahor tongi	tonggi shabada	Ma'mur
vaqt	vaqtincha	e'tibor



**283-mashq.** Topishmoqni o'qing. Javobini toping.

Rangi har xil: kul rang, oq.  
Oyoqlari — yung paypoq.  
Yerda asta yuradi,  
Ko'proq suvda suzadi.



Topishmoqni ko'chiring. Javobini yozing. *Rangi, oyoqlari* so'zlarini ko'chirish uchun bo'g'inlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing.



## 284-mashq. O'qing.

### 9-MAY — XOTIRA VA QADRLASH KUNI

Bu kun umumxalq bayramidir. Shonli kunga bag'ishlab maktabimizda kecha o'tkazamiz. Kechada Vatanimiz ozodligi va shon-shuhrati himoyachilarini sharaflaymiz. Bu yo'lida qurban bo'lganlarni yodga olamiz. Ularning tabarruk nomlarini bir umr xotirada saqlaymiz.

Matn mazmunini so'zlab bering.

Sizlar ham maktabda yoki sinfigizda „Xotira kuni”ga bag‘ishlangan yig‘in o’tkazdingizmi? Shular haqida yozing.

### 285-mashq. O‘qing.

## XOTIRA MAJMUASI

„Xotira majmuasi”ni ziyorat qilishga bordik. U yer muqaddas qadamjodir. Majmuani bunyod qilishda Qo‘qon, Buxoro, Samarqand, Urganch, Xiva ustalari fidokorona mehnat qilganlar.

„Xotira majmuasi”da ko‘rganlaringizni so‘zlab bering.

Ko‘chiring. Shahar nomlarini bildirgan so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib yozing.

### 286-mashq. O‘qing.

## ZARG‘ALDOQ

**Zarg‘aldoq** asalari uyasi yonidagi **inga** qo‘ndi. Keyin nolish qilib tepamizda aylandi.

Biz **daraxt** atrofini kuzatdik. Daraxtgaga chirmashgan ilon yuqoriga o‘rmalardi. Zarg‘aldoqning nolasi yana **kuchaydi**.

Shu payt kutilmagan **voqeа** yuz berdi. Birdan asalarilar **ilonga** yopirildi. Ilon daraxtdan qulab tushdi.

Asalarilardan minnatdor zarg‘aldoq daraxt shoxida biyo-biyolab kuylardi.

*M. To‘ychiyev*

*Savollar asosida voqeani so‘zlab bering.*

1. Zarg‘aldoqning nolasi nega kuchaydi?
2. Kutilmagan qanday voqeа yuz berdi?

### 3. Zarg‘aldoq nima qildi?

Ajratilgan so‘zlarni ko‘chirish uchun bo‘g‘inlarga bo‘lib yozing.

**287-mashq.** Rasmlarni ko‘ring. Bolalarga ism qo‘ying.



Reja asosida uch bo‘limli hikoya tuzing.

### Reja

1. Ikki o‘rtoq baliq oviga borishdi.
2. Biri sirg‘anib suvga tushib ketdi.
3. Ikkinchisi uni suvdan olib chiqdi.

Hikoyangizga sarlavha qo‘ying va yozing.



**288-mashq.** Tushirilgan harflarni qo‘yib ko‘chiring.

Gul uyg‘.ndi, bulb.l uyg‘.ndi,  
Maysalarni uyg‘.tdi yellar.  
Chapak chaldi yaproqlar xursan.,  
Lolalarni uyg‘.tdi yellar.

*Hasan Po‘lat*

She‘r nima haqida yozilgan?

Qiyoslang: *gul uyg‘ondi – ukam uyg‘ondi* va *yaproqlar chapak chaldi – bolalar chapak chaldi*.



**289-mashq.** So‘z nimalarni bildiradi? Narsa-shaxsnинг nomini, uning harakatini, belgisini va sanog‘ini bildiradigan so‘zlarga misol ayting.

**290-mashq.** Meva va sabzavotlar nomini alohida-alohida qatorga alifbo tartibida yozing.

Behi, anor, karam, uzum, baqlajon, pomidor, olma, lavlagi, gilos, sholg‘om, shaftoli, turp.

**291-mashq.** Ifodali o‘qing. Ko‘chiring.

Bahor keldi,	Oh qandayin
Gul ochildi,	O‘yin-kulgi!
Nur sochildi borliqqa.	Yurak to‘ldi shodlikka.

*Zafar Diyor*

Narsani bildirgan so‘zlar tagiga bitta, harakatni bildirgan so‘zlar tagiga ikkita chiziq chizing.

**292-mashq.** O‘qing.

Bir kuni Marat ruchkasini esidan chiqarib qo‘yibdi. To‘lqinda esa ikkita ruchka bor edi. Marat undan:

— Bitta ruchkangni berib tur, o‘rtoq, — deb so‘ragan edi, To‘lqin:

— Nega o‘zingnikini esdan chiqarding? Bermayman, — dedi.

Marat boshqa qistamadi. Shu kuni u darsda hech narsa yozolmadi.

*Hakim Nazir*

*Savollarga javob bering.*

1. To‘lqin ortiqcha ruchkasini o‘rtog‘iga berib turmagani to‘g‘rimi? 2. Siz o‘z narsangizni o‘rtog‘ingizga berib turasizmi?

Oxirgi ikkita gapni ko'chiring. Harakatni bildirgan so'zlar tagiga ikkita chiziq chizing.



**293-mashq.** Topishmoqni o'qing. Javobini toping.

Yerda asta unadi,  
Oftob chiqsa, kuladi.  
Bahorning ilk elchisi,  
Buni hamma biladi.



Matndagi qaysi so'zlardan ma'nosi yaqin so'zlar tanlay olasiz? Tanlagan so'zlariningizni yonma-yon yozing.



**294-mashq.** O'qing.

## GULBEOR


Gulbeor — bir yillik manzarali o'simlik. Etli, pushti rang moyasi bor. Bargi ham etli va sersuv. Sariq, och sariq, pushti, qizil rangda gullaydi.

Gulbeor urug'dan ko'payadi. Poyasini uzib olib, nam tuproqqa tiqib qo'yilsa ham ko'karadi.

Matnning birinchi bo'limini ko'chiring. Narsa nomini bildirgan so'z tagiga bitta chiziq, belgisini bildirgan so'z tagiga to'lqinli chiziq chizing.

**295-mashq.** Topishmoqni o'qing va ko'chiring. Javobini yozing.

Kunduz nurin sochadi,  
Kechga borib qochadi.



Qaysi undosh tovush harflar birikmasi bilan ifodalangan? Aniqlang, tagiga chizing.

## 296-mashq. O'qing. Yod oling.

*Yaxshi bola ukasini  
Yig‘laganda ovutadi,  
Yomon bola araz qilib,  
Issiq oshni sovutadi.*

*Tolib Yo 'ldosh*

She'rni yoddan yozing. Qarama-qarshi ma'noli so'zlarning tagiga chizing. Ajratilgan so'zlarga qarama-qarshi ma'noli so'zlarni tanlang va ularni yonma-yon yozing.

**297-mashq.** O'qing. Qancha?, nechta? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni aniqlang.

## CHUMCHUQ

Chumchuq ham — foydali qush. Bir chumchuq oilasi polaponlarini boqish uchun o'n mingta hasharotni tutadi. Chumchuqlar ikki marotaba bola ochadi. Demak, ular yigirma ming hasharot bilan polaponlarini boqadi. Shunday qilib, sakson tup olma daraxti zararli hasharotlardan saqlanadi.

Ko'chiring. Sanoqni bildirgan so'zlar tagiga to'lqinli chiziq chizing.



## 298-mashq. O'qing.

Shotut— ko‘p yillik daraxt. Shoxlari qo‘ng‘ir-qizg‘ish. Bargi dag‘al, qalin. Aprelda meva tugadi, may oyida pishadi. Mevasining rangi qora yoki to‘q qizil. Mazasi nordon.

Shotut — shifobaxsh meva.

Ko'chiring. Belgini bildirgan so'zlarning tagiga chizing. Shifobaxsh so'zining ma'nosini izohlang.



**299-mashq.** Rasmlarga qarang. Gaplarni o‘qing va ularni rasmlar tartibida ko‘chiring, hikoya hosil bo‘lsin.



Bolalar chayлага kirib yashirindilar. Yomg‘ir tindi.  
Quyosh chiqdi.

Muzrob, Nazira va Naima lola terib yurishar edi. Kuchli shamol boshlandi. Yomg‘ir yog‘ib ketdi.

Qaysi so‘zlar bosh harf bilan yozilgan? Nima uchun? Yana qaysi so‘zlar bosh harf bilan boshlanadi?

### **300-mashq.** O‘qing.

Qora o‘tmish qoldi ortda,  
Dorilomon kunlar yurtda,  
Mehr — ko‘zda, muhabbatda.  
Porla, Millat Bayrog‘i!

Osmon to‘la yulduz oppoq,  
Bir-biridan chaqnoq, biroq—  
O’n ikkisi eng yarqiroq.  
Porla, Millat Bayrog‘i!

Mangulik, nur yo‘lidasan,  
O‘ngidasan, so‘lidasan,  
Ozod xalqing qo‘lidasan,  
Porla, Millat Bayrog‘i!

*Azim Suyun*

Bayrog‘imiz haqida nimalarni bilasiz, so‘zlab bering.  
Qanday?, nechta? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zлarni aniqlang va yozing.



anjom	jarroh	sabzi
ajdod	juft	Samarqand
avgust	karam	sinf
avlod	kitob	singil
baland	kombayn	soat
baho	konki	uchuvchi
bahor	lavlagi	vazifa
baqlajon	loviya	vatan
bodring	madhiya	xalq
behi	mangu	xat
Buxoro	majmua	xursand
daftar	marhamat	xo'roz
daraxt	maqsad	yashnamoq
dars	menejer	yomg'ir
do'st	metro	yong'oq
farovon	navbatchi	yostiq
farzand	olxo'ri	zavod
fasl	payvand	o'qituvchi
gerb	paxta	o'quvchi
havo	pomidor	shaftoli
hasharot	quruvchi	shahar
handalak	quyosh	shifobaxsh
hikoya	qo'ng'iroq	sholg'om
javob	rasm	chana
jahon	rassom	

## MUNDARIJA

Takrorlash .....	3
Gap va so‘z.....	3
Tovushlar va harflar.....	6
Unli tovushlar va harflar.....	7
Undosh tovushlar va harflar.....	13
’ –Tutuq belgisi .....	22
Alifbo.....	24
Nutq. Matn. Gap.....	26
So‘z va bo‘g‘in.....	34
Bo‘g‘in ko‘chirish.....	37
Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar. Ularning harf bilan ifodalanishi.....	41
Aytilishda tushib qoladigan undoshlar.....	46
So‘z ichida ketma-ket kelgan bir xil undoshlar .....	48
So‘z va gap.....	53
Shaxs va narsa nomini bildirgan so‘zlar.....	55
Kishilarning ismi va familiyasida bosh harf.....	65
Hayvonlarga qo‘yilgan nomda bosh harf.....	70
Shahar, qishloq, ko‘cha, daryo nomlarida bosh harf.....	73
Shaxs va narsa harakatini bildirgan so‘zlar .....	75
Shaxs va narsa belgisini bildirgan so‘zlar .....	86
Sanoq va tartibni bildirgan so‘zlar.....	93
Gap .....	97
Takrorlash .....	102
Lug‘at.....	110

**KARIMA QOSIMOVA, SIDDIQ FUZAILOV,  
ADOLAT NE'MATOVA**

**ONA TILI**

**2-sinf uchun darslik**

*Sakkizinchи nashri*

*Toshkent – Cho'pon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi – 2005*

*Muharrir Shohida Soatova  
Rasmlar muharriri Uyg'un Solihov  
Texn. muharrir Yelena Tolochko  
Kompyuterda matn teruvchi Rozigul Azizova  
Musahhiha Gulchehra Azizova*

IB № 09-125

Bosishga ruxsat etildi 24.05.2005. Bichimi 70·100<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qog'oz. Kegli 15,13 shponli. Ofset bosma. Sharli b.t. 9,03. Nashr.t. 7,0. 30000 nusxada bosildi (1 zavod). Shartnoma № 04-2005. Buyurtma № A-0117. Bahosi 915 s.

Cho'pon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida bosildi. 700129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

**Qosimova K. va boshq.**

Ona tili: 2-sinf uchun darslik (K. Qosimova, S. Fuzailov, A. Ne'matova). 8-nashri. — T: Cho'pon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.— 112 b.

1,1,2 Avtordosh.2

BBK 81.2 O'z – 922

**РАССЫЛКА**